



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA FAKULTETI

Geografiya yo'nalishi
4-bosqich 401-guruh talabasi

Narzullaeva Umidaxonning
“SANOATNI MODERNIZATSIYALASHDA
INVISTIYALARNING AHAMIYATI” mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY

ISHI

Namangan – 2015

MUNDARIJA

KIRISH.....	
I-Bob. MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA	
MAMLAKATNING SANOAT SIYOSATI... ..	7
1.1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojida ro`li va o`rni.....	7
1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatni	
joylashtirishning nazariy asoslari.....	16
1.3. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o`zgarishlar va milliy iqtisodiyotni	
modernizatsiyalash jarayonlarining mohiyati.....	20
II-Bob. SANOAT TARMOQLARINI MODERNIZATSYALASHDA FAOL	
INVESTITSİYALARNI AXAMIYATI.....	34
2.1. Rivojlangan mamlakatlarning innovatsiya jarayonidagi	
tajribalarini respublikamiz korxonalarida qo`llash usullari.....	34
2.2. Xorijiy investitsiyalar sanoatni rivojlantirish omili.....	45
2.3. Sanoatni rivojlantirishning istiqbollari.....	62
XULOSA.....	66
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	69
ILOVALAR.....	72

KIRISH

Mavzuining dolzarbligi. Hozirgi kunda mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarni jalb etish va uni samaradorligini oshirish katta ahamiyatga ega. Iqtisodiyotni erkinlashtirish islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida mazkur tizimga chet el investitsiyalarini yanada ko'proq jalb qilishga va ularning samaradorligini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilayotganiga barchamiz guvoh bo'layapmiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlanganidek: «Jamiyatimizning jahon tsivilizatsiyasiga keng ko'lamda integratsiyalashuvi, iqtisodiyotimizga investitsiyalar olib kirilishi uchun haqiqiy va tashkiliy sharoitlar yaratdik».

Jadal va mutanosib iqtisodiy o'sish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda faol va aniq yo'naltirilgan investitsiya siyosati yuritish

- ✓ 2014 yilda iqtisodiyotimizga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 10,9 foizga o'sdi yoki AQSH dollari hisobida 14,6 mlrd. dollarni tashkil etdi.
- ✓ Jami kapital qo'yilmalarning 21,2 foizdan ortig'i yoki 3 mlrd. dollardan ziyodini xorijiy investitsiya va kreditlar tashkil qildi. Ularning to'rtidan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.
- ✓ Jami investitsiyalarning 73 foizdan ortig'i ishlab chiqarish sohasiga va qariyb 40 foizi mashina va uskunalar xarid qilishga sarflandi.¹

Ayniqsa, yetakchi tarmoqlarga chet el sarmoyasini jalb etmay turib iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash, ohir oqibatda esa raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, hech qaysi mamlakat jahon iqtisodiyotidan ajralgan holda, tashqi yordamlarsiz, boshqacha aytganda, xorijiy sarmoya va ko'maklarsiz iqtisodiy taraqqiyotga erishishi mumkin emas.

¹Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustuvor vazifamizdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2015-yil, 16-yanvar soni.

Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot tarixi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni qayta qurish, modernizatsiyalash va yuksaltirishdagi o'rnini nihoyatda katta ekanligini ko'rsatadi

Hozirgi paytda dunyoda iqtisodiyotni qayta qurish va jadal rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalardan foydalanish keng tus oldi.

Iqtisodiyotni moliyalashtirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati shundaki, ular mamlakatga ko'p tomonlama samara beradi:

Birinchidan, iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning umumiy oqimi ortadi.

Ikkinchidan, eksport salohiyati, ishlab chiqarish yoki xizmat sohasi rivojlanadi.

Uchinchidan, aholining ish bilan bandlik darajasi o'sadi.

To'rtinchidan. Mamlakat byudjetiga qo'shma korxonalardan soliqlar tushumlari ko'payadi.

Beshinchidan, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi jadallashtiriladi.

BMIning maqsadi va vazifalari. Hozirgi paytda Dunyoda iqtisodiyotni qayta qurish va jadal rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalardan foydalanish keng tus oldi. Chet el investitsiyalarni o'ziga jalb etish uchun barcha mamlakatlar o'zaro raqobatlashadilar. So'nggi yillarda dunyoda AQSHning o'z telekommunikatsiya tizimini to'la qayta qurish va Janubi-Sharqiy Osiyodagi iqtisodiy inqirozlar natijasida dunyoda yalpi investitsiyalar miqdorining kamayishi ro'y berdi. Natijada, xorijiy investitsiyalar jalb etilishi barcha mamlakatlar uchun qiyinlashib qoldi. Eng mukammal investitsion muhit yaratilgan mamlakatlarga buning uddasidan chiqmoqda. SHuning uchun tadqiqodimizning maqsadi O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb etish va ularni samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy- amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdir. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun qo'yidagi vazifalar belgilandi va hal qilinadi:

- O'zbekiston Respublikasiga kiritilgan xorijiy investitsiyalarning ahamiyati, samaradorligi va asosiy yo'nalishlari darajasini aniqlab olish, hamda oxirgi yillardagi o'zgarishlarni tahlil etish;
- Chet el investitsiyalarini jalb etilishiga ta'sir etadigan asosiy omillarni o'rganib chiqish;
- O'zbekiston hududida xorijlik sheriklar bilan hamkorlikdagi korxonalar faoliyatini, hamda ularni samaradorligini tahlil qilib chiqish; qo'shma korxonalarni milliy iqtisodiyotga keltiradigan foydasini yoritib berish;
- Hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida chet el investitsiyalarning ahamiyatini e'tiborga olib, O'zbekistonda yaratilgan investitsion muhitni tadqiq etish;
- Mamlakatimiz iqtisodiyotiga, ayniqsa yetakchi sohalarga, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish, investitsion muhitni takomillashtirish, shuningdek eksport salohiyati darajasini ko'tarish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Rivojlangan mamlakatlar adabiyotlarida chet el investitsiyalarni jalb etish hamda investitsion faoliyatni takomillashtirish muammolariga katta ahamiyat berilgan. Bu muammoni o'rganishga Gilbert A. Cherchill, Jr., Paul A. Samuelson, V.P. Gruzinov, Christopher Dougherty, Frank J. Fabozzi, Eugene F. Brigham, Louis C. Gapenskilar katta hissa qo'shganlar.

Milliy iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni jalb qilish masalasini MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari asarlarida ham keng tahlil qilingan, jumladan I.N. Gerchikova, Y.F. Prokushev, I.P. Faminskiy, L.E. Strovskiy, A.G. Tarasov va boshqalarning tadqiqotlarini ajratib ko'rsatish lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarini jalb qilish muammolarini, hamda mamlakatimizda investitsion muhiti takomillashtirishning nazariy hamda amaliy muammolari S. Gulomov, M. Sharifxo'jaev, M. Hakimova, SH. Abdullaeva, M. Razzoqova kabi olimlar asarlarida yoritilgan. Ayni paytda bu boradagi tadqiqotlar izchil davom etmoqda.

BMIning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalari belgilangan.

BMIning predmeti sifatida O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etiladigan chet el investitsiyalari, hamda O'zbekistondagi yuridik va jismoniy shaxslar va xorijiy investorlar o'rtasidagi mavjud iqtisodiy munosabatlar majmui tanlandi.

Ishning uslubiy va nazariy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakat iqtisodiy siyosatiga oid asarlari, chet el investitsiyalarni jalb etish va ularni samaradorligini oshirish bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, O'zbekiston Respublikasining integratsiyalashuviga, xususan mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalar jalb etish va ularni samaradorligini oshirishiga qaratilgan qonunlar va me'yoriy xujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Namangan mamlakati hokimligi xuzuridagi istiqbol va statistika bosh boshqarmasining, hamda ayrim xorijiy mamlakatlar statistik ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan ba'zi qo'shma korxonalar hisobotlari va tahlillari natijalaridan foydalaniladi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi qo'yidagilarda ifodalandi:

- amalga oshirilgan tadqiqotning asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni kengaytirish hamda investitsion iqlimni takomillashtirish zaruriyati va yo'nalishlarini asoslab berishga yo'naltirilganligi;
- mamlakatimiz iqtisodiyotiga chet el investitsiyalarni jalb etilishiga to'sqinlik qiladigan omil va muammolar tadqiq etilganligi va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilganligi.
- Mamlakatda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish masalalari tadqiq etilganligi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, milliy iqtisodiyotga chet el investitsiyalarini jalb etish samaradorligini oshirish yuzasidan ishlab chiqilgan.

I.BOB. MAMLAKATNI MODERNIZATSIYA QILISH SHAROITIDA MAMLAKATNING SANOAT SIYOSATI

1.1. Sanoatning milliy iqtisodiyot rivojida roli va o'rn

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik yetakchi tarmog'i bo'lib, unda mehnat qurollari (vositalari), mehnat buyumlari va xalq iste'mol tovarlarining ko'pchilik qismi yaratiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar kichik biznes subyektlarini statistik va soliq hisobotlarini taqdim etish mexanizmlari soddalashtirildi, bugungi kunda ularning 98 foizi mazkur hisobotlarni topshirish, bojxona deklaratsiyalarini rasmiylashtirishni bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqdalar. Sanoatning yengil, oziq-ovqat va qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmoqlarida ishchilarning eng ko'p soni ilgari 100 kishidan 200 kishigacha oshirildi.²

Bundan tashqari mashina va mexanizmlarning barcha turlari, bino va inshootlarning konstruktiv elementlari ishlab chiqariladi, yer osti boyliklarini qazib olish amalga oshiriladi, mineral, o'simlik va hayvon xomashyosiga ishlov beriladi hamda keng iste'mol mollari tayyorlanadi.

Sanoat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari, mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalar rivoji sanoatning taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivoji va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, mamlakatning mavqei shunchalik kuchli bo'ladi va aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi.

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi.

² Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalgam oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish-ustuvor vazifamizdir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2015-yil, 16-yanvar soni.

Sanoat rivoji tufayli unda band bo'lgan xodimlarning soni ko'payadi, ularning bilim va ilmi, mahorati ortadi, kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi.

Mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi, konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg'or usullari – ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ko'plab ishlab chiqarish va uzluksiz potok sistemasi yordami bilan tashkil etish sanoat sohasida hukmronlik qiladi.

Faqat yirik mashina industriyasigina fan va texnikaning barcha yutuqlarini o'zida to'plab, mujassamlashtirib, mehnatni texnika bilan qurollantirishi va uning unumdorligini yuqori darajaga ko'tarishi mumkin.

Sanoat va ayniqsa uning eng muhim sohasi bo'lgan og'ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy texnika vositalarini o'zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib boradi.

Sanoat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta'minlash orqali sanoat dehqon xo'jaligini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko'tarishga, shahar bilan qishloq o'rtasidagi muhim tafovutni yo'qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar kichik biznes va Xususiy tadbirkorlik likni rivojlantirishni rag'batlantirish orqali 2014 yilda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 20 mingdan ziyod yangi kichik biznes subyektlarinilari tashkil etildi, ularning umumiy soni 195 mingdan ziyodni tashkil etdi.

YIMni shakllantirishda Kichik biznes va Xususiy tadbirkorlik sohasining ulushi 2010 yildan buyon 31 foizdan 56 foizga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sdi. 2014 yilda Kichik biznes va Xususiy tadbirkorlik sohasida 480 mingdan ortiq yangi ish o'rnini tashkil etildi. Bugungi

kunda iqtisodiyotning ushbu sohasida ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ziyodi mehnat qilmoqda.

Barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan hamkorligi sanoat sohasida ham o'z ifodasini topadi. Mamlakatlarning tabiiy, mehnat resurslaridan, ilm-fan va texnikaning barcha yutuqlaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayishida sanoatning ahamiyati salmoqlidir.

Sanoat uchun uzluksiz fan-texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarish ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishining o'sishi xarakterlidir. Unda elektrlashtirish va elektronizatsiyalash, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va ximiyalashtirish sohasidagi ilg'or yutuqlardan keng foydalaniladi va ularning yutuqlarini tinchlik maqsadida qo'llaydi.

Sanoat, ayniqsa uning ustuvor sohalari butun ishlab chiqarishni globallashtirish muammolarini hal etishning kalitidir.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog'i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo'lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan bir moddiy negizi bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning yetakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadrlar (xodimlar)ning asosiy qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi.

Mamlakat aholisining ish bilan bandligini oshirishda sanoatning roli beqiyosdir. Buni quyidagi jadval ma'lumotlaridan bilib olish mumkin. (1-jadval)

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha aholi bandligi va uning 1999-2012
yillardagi o'sish sur'atlari**

	Ming kishi hisobida				
	1999 y.	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2012 y.
Iqtisodiyotda bandlar, jami	<u>8449</u> X	<u>8983</u> 106,3	<u>10196,3</u> 113,5	<u>11628,4</u> 114,1	<u>12223,8</u> 105,1
SHu jumladan, sanoat	<u>1087</u> X	<u>1145</u> 105,3	<u>1348</u> 117,7	<u>1540</u> 114,2	<u>1589,7</u> 103,2
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	<u>3485</u> X	<u>3093</u> 88,8	<u>2967</u> 95,9	<u>3127</u> 105,4	<u>3330</u> 106,5
Qurilish	<u>528</u> X	<u>676</u> 128	<u>849</u> 125,6	<u>1065</u> 125,4	<u>1130,3</u> 106,1
Transport va aloqa	<u>348</u> X	<u>382</u> 109,8	<u>488</u> 127,7	<u>604</u> 123,8	<u>636,3</u> 105,3
Savdo, umumiy ovqatlanish, ta'minot, sotish va tayyorlov	<u>705</u> X	<u>754</u> 107	<u>904</u> 120	<u>1243</u> 137,5	<u>1329,4</u> 107
Uy-joy- kommunal xo'jalik va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish	<u>214</u> X	<u>251</u> 117,3	<u>316</u> 125,9	<u>400</u> 126,6	<u>428,3</u> 107,1
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta'minot	<u>487</u> X	<u>587</u> 120,5	<u>736</u> 125,4	<u>894</u> 121,5	<u>924,1</u> 103,4
Ta'lim, madaniyat, san'at fan va ilmiy xizmat ko'rsatish	<u>1054</u> X	<u>1146</u> 108,7	<u>1385</u> 120,9	<u>1610</u> 116,2	<u>1642,9</u> 102
Moliya, kreditlash va sug'urta	<u>40</u> X	<u>52</u> 130	<u>54</u> 103,8	<u>66</u> 122,2	<u>67,8</u> 102,7
Boshqa sohalar	<u>501</u> X	<u>897</u> 179	<u>1149</u> 128,1	<u>1079</u> 93,9	<u>1145</u> 106,1

Izoh: suratda – iqtisodiyot tarmoqlaridagi bandlar mutloq soni, ming kishi; maxrajda – tarmoqdagi bandlikning o'sish sur'ati, foizda

O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining 13 foizi sanoat ishlab chiqarish hissasiga to'g'ri keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, respublika sanoatining jadal sur'atlar bilan ta'minlanishi yanada yaxshilanib, mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, ya'ni bandlik darajasi anchagina yuksaladi. Jamiyatning yetakchi, bunyodkor, qudratli kuchi bo'lgan kadrlar (xodimlar)ning asosiy qismi sanoatda xizmat qiladi. Bu tarmoqning yanada ulkan rivoji sanoat kadrlari sonining oshishiga va ularning jamiyatdagi mavqeini ko'tarishga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi sanoatining taraqqiyoti yuqori malakali ishchi kadrlar, muhandis va texnik xodimlarni yaratdi. Hozirgi paytda O'zbekiston sanoatida 1,2 millionga yaqin xodim ishlamoqda. Ulardan 462 ming kishi oliy ma'lumotli mutaxassis, 600 mingdan ortig'i o'rta va o'rta maxsus ma'lumotli xodimlardir.

Taraqqiyot qonunlaridan biri sanoat xodimlarining madaniy – texnik saviyasi o'sishi, ishlab chiqarish malakasi va tajribasini tinmay oshib borishidir.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotni jadallashtirishni ta'minlovchi buyuk harakatlantiruvchi kuch – raqobat ham avvalo, sanoat sohasida vujudga keldi va rivojlana boshladi. Tadbirkorlar, ishbilarmonlar bellashuvning bayroqdori bo'lib maydonga chiqdilar. Respublika sanoatida ham raqobat o'zining oddiy bosqichidan eng yuqori bosqichiga ko'tarilib, chinakam umumiy dastakka aylanmoqda.

Mustaqillikning afzalliklari va mamlakat iqtisodiy siyosatining yetakchilik rolini yanada oshirmoqda. Oliy Majlisning qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari eng avvalo, sanoat sohasida amalga oshirilmoqda va sezilarli samara bermoqda.

Sanoat tabiatda uchraydigan moddiy boyliklarni qazib chiqarish va tayyorlashni, ularni va qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlashni o'z ichiga qamrab oladi. Sanoat barcha xalq xo'jaligi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish kuchlarining asosiy elementlaridan biri hisoblangan jamiyatning tabiat ustidan hukmronligini birmuncha orttiradigan, texnika taraqqiyotini belgilaydigan, inson mehnatining unumdorligini oshirishga imkon beradigan, mehnat va ishlab chiqarish qurollarini yaratadigan sohadir.

Sanoat taraqqiyoti ishlab chiqarish kuchlarining bir tomonlama rivojlanishiga xotima beradi, mamlakat va uning ajralmas qismi bo'lmish mamlakatlarning tabiiy boyliklaridan, xomashyo va mehnat resurslaridan kengroq va har tomonlama foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Jahon banki tomonidan e'lon qilingan, xarid qobiliyati bo'yicha hisoblanadigan YIM hajmiga qarab aniqlanadigan iqtisodiy rivojlanish borasidagi yangilangan reytingda O'zbekiston dunyoning 190 ta mamlakati orasida 2012

yildagi 72-o'ringdan 66-o'ringa ko'tarildi. Mamlakatimiz 2014 yilda biznesni yuritish sharoiti bo'yicha reytingda 8 pog'onaga, soliqqa tortish borasida 61 pog'ona yuqoriga ko'tarildi. BMT Taraqqiyot dasturining bahosiga ko'ra, O'zbekiston so'nggi yilda biznes yuritishni yengillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar bo'yicha yetakchi 10 ta mamlakat qatoridan joy oldi.

Sanoatning vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining o'sishi, ishlab chiqarishni differentsiyalash va intensivlashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Sanoat yo'nalishida 392 ta (100,0%) loyihalar, shundan yengil sanoat yo'nalishida 41,1 mlrd so'mlik 127 ta loyiha (3771 ta ish o'rni), oziq-ovqat yo'nalishida 20,7 mlrd so'mlik 70 ta loyiha (672 ta ish o'rni), qurilish materiallari sanoatida 27,9 mlrd so'mlik 124 ta loyiha (1681 ta ish o'rni), charm boyabzali yo'nalishida 1,5 mlrd so'mlik 8 ta loyiha (86 ta ish o'rni), mashinasozlik va metalni qayta ishlash sohasida 12,2 mlrd so'mlik 17 ta loyiha (337 ta ish o'rni), mebel va qog'oz sanoatida 3,0 mlrd so'mlik 24 ta (243 ta ish o'rni), kimyo va neftkimyo sanoatida 9,6 mlrd so'mlik 16 ta loyiha (259 ta ish o'rni), elektrotexnika sanoatida 402,0 mln so'mlik 4 ta loyiha (44 ta ish o'rni) hamda famotsevtika sanoatida 8,4 mlrd so'mlik 2 ta loyiha (107 ta ish o'rni) amalga oshirilib, 7200 ta ish o'rinlari (100,0%) yaratildi. Ushbu loyihalarga 124,9 mlrd so'm mablag'lar (shundan, 54,4 mlrd so'mi bank krediti va 100,0 ming dollar xorijiy investitsiyalar) yo'naltirildi. Mamlakatda 2014 yil yakuni bilan 2900 dan ziyod faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan hisobot davrida 1965,0 mlrd.so'mlik (112,5%) sanoat mahsulotlari, 1205,0 mlrd. so'm (113,7%) xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilib, prognoz (112,5% va 112,0%) parametrlari to'liq ta'minlandi.

Sanoatning milliy iqtisoddagi roli va o'rnini quyidagi jadvaldan aniqroq ko'rish mumkin. (2- jadval)

**O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyotining
asosiy ko'rsatkichlari (haqiqiy bahoda, mlrd. so'm)**

	2005 y.	2010 y.	2012 y.	2013 y.
Yalpi ichki mahsulot	302,8	3255,6	3255,6	4868,4
shu jumladan, yalpi sanoatning				
qo'shgan qiymati	211,5	304,7	462,4	690,0
Sanoatning salmog'i, foizda	14,9	14,3	14,2	14,2
Iqtisodiyotdagi foyda	124,1	161,8	283,3	449,8
shu jumladan, sanoatda	71,0	69,6	84,4	117,3
iqtisodda band bo'lgan aholining				
soni, mln. kishi	8,8	8,9	9,0	9,1
shu jumladan, sanoatda	1,1	1,8	1,1	1,2
sanoatning ulushi, foizda	12,7	12,7	12,7	12,7
Asosiy ishlab chiqarish fondlari				
(xalq xo'jaligi bo'yicha)				
shu jumladan, sanoatda	358,6	528,1	2776,6	3167,1
Kapital qo'yilmalar (xalq xo'jaligi				
bo'yicha)				
shu jumladan, sanoatda	114,3	175,2	221,5	514,0

1991 yildan boshlab O'zbekiston sanoat ishlab chiqarishidagi kamayish, boshqa sobiq ittifoq mamlakatlariga nisbatan past bo'lib keldi. Buning sababi, iqtisodiyotning xomashyo va materiallarga bog'liqligi va shu tariqa Sovet Ittifoqining tarqalib ketishidan so'ng mamlakat tomonidan eksportni tez sur'atda qayta yo'naltirishga erishilganligidadir. 2010 yil uzluksiz o'sishning beshinchi yili bo'ldi. Buni quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin.

**1995-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasida
iqtisodiy o'sish (sanoat misolida)**

	1995 y.	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2012 y.
Yalpi ichki mahsulotning yillik o'zgarishi, %	99,1	103,8	107,0	108,5	108,2
Sanoat ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish, %	-	105,9	107,2	108,5	107,7
Nominal yalpi ichki mahsulot (mlrd. so'm)	302,8	3255,6	15923,4	62388,3	96589,8
Sanoat ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i %	17,1	14,1	21,1	23,9	24,0
Asosiy kapitalga investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i, %	24,2	22,9	19,9	24,6	22,8
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidagi yillik o'zgarish, %	-	103,1	105,4	106,9	107,0
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %	28,1	30,1	26,3	18,0	17,5

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2013 yilda jami sanoat ishlab chiqarishi oldingi yillarga nisbatan bir muncha tezroq o'sdi. Ayniqsa qayta ishlash sanoati qazib oluvchi (undiruvchi) sanoatga nisbatan katta sur'atlar bilan o'sdi. Agar shu ko'rsatkich 1999 yilda 0,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilga kelib 7,3 % ga yetdi. Quyidagi, 4-jadvalda 1995-2013 yillarda sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar ko'rsatilgan.

**Sanoat ishlab chiqarishi tarmoqlaridagi o'zgarishlar (o'sish indeksi, oldingi
yil -100)**

	1995 y.	2000 y.	2005 y.	2010 y.	2013 y.
Yalpi sanoat ishlab chiqarishi	100,1	105,9	107,2	108,5	107,7
1. Elektr-energetika	100,4	101,1	97,8	102,7	102,4
2. Yonilg'i sanoati	99,6	99,7	99,1	104,1	106,2
3. Qora metallurgiya	88,9	118,7	105,3	107,7	103,6
4. Rangli metallurgiya	100,3	102,5	97,6	99,1	102,6

5. Kimyo va neft-kimyo sanoati	111,3	115,8	108,1	117,1	106,4
6. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	118,9	89,7	131,1	112,8	112,4
7. O'rmonchilik va yog'ochni qayta ishlash	103,6	130,1	125,7	106,3	104,6
8. Qurilish materiallari	87,3	104,3	110,4	105,8	111,0
9. Yengil sanoat	97,8	117,0	111,9	117,9	112,0
10. Oziq-ovqat sanoati	98,4	108,5	111,8	113,1	106,5

Bunday o'sishning asosiy omili mamlakatning o'zi islohotlar strategiyasini sanoatlashtirish siyosati bilan barobar olib bora boshlaganidir.

Respublikada faol sanoatlashtirish siyosati olib borilishi munosabati bilan 1995 yilda u MDH mamlakatlari orasida o'zining rivojlanishini qayta tiklagan, keyinchalik, 2005 yilda, birinchi bo'lib 2010 yil darajasidan ancha o'sgan, 2012 yilda esa dastlabki (bazaviy) ishlab chiqarish hajmiga nisbatan 21.5 foizga o'sgan yagona respublika bo'lib qoldi.

O'zbekiston ko'rsatkichlari ijobiy bo'lishining eng muhim sabablari – bu mavjud sanoat tarmoqlarining kerakli hajmda saqlab qolib, yangi tarmoqlarni yaratish strategiyasi bo'ldi. Mustaqillikning birinchi yillaridanoq O'zbekiston hukumati uchun real sektorni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Respublikamizning o'z-o'zini yoqilg'ienergetika mahsulotlari bilan ta'minlash siyosati (neft va neft mahsulotlari hamda gaz ishlab chiqarishning keskin o'sishi) qo'shimcha qiymat yaratuvchi (mashinasozlik, yog'och va yog'ochni qayta ishlash) sohalarining intensiv rivojlanishi bilan birgalikda olib borildi. SHu bilan birga, yengil va oziq-ovqat sanoatlarining rivoji ham qayd etildi.

Umuman olganda, tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida og'ir sanoat (yonilg'ienergetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya) salmog'ininng oshishi yengil sanoat ulushi hisobiga bo'lmoqda. Natijada, mustaqil iqtisodga xos bo'lgan darajaga yaqinlashish yuz bermoqda va sobiq ittifoq mamlakatlarida qayta ixtisoslashuvdan paydo bo'layotgan yetishmovchilik va tobelikning oldini olish ta'minlanmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va qo'shimcha qiymat yaratuvchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy strategiya respublikaga yaxshi natijalar keltirmoqda.

O'zbekiston o'zining oltini, paxta tolasi va ipagi, nefti va gazi, samolyot va avtomobillari, paxta terish mashinasi va paxtani qayta ishlash mashinalari bilan, ekskavator va kompressorlari, vino va konservalari hamda bir qator boshqa sanoat mahsulotlari bilan dunyoga mashhur.

O'zbekiston respublikasining industrial qiyofasini energetika, kon-ruda, oltin qazib oluvchi, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari, elektrotexnika va elektron sanoatlari, ko'p tarmoqli mashinasozlik va qurilish materiallari sanoati belgilab bermoqda.

Mustaqallikning 11 yilida sanoat mahsulotining hajmi 3 marta ko'paydi. Bu davrda faqat miqdoriy o'zgarishlargina emas, balki juda katta sifat o'zgarishlari ham sodir bo'ldi.

1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoatni joylashtirishning nazariy asoslari

Sanoatni modernizatsiyalash sharoitida ishlab chiqarishni samarali joylashtirish yangicha ko'rinishga va o'ziga xos iqtisodiy o'sish shakliga aylanadi. Ushbu jarayon sanoat korxonalarini raqobatbardoshlik darajasi, mintaqa tabiiy-iqtisodiy salohiyatidan unumli foydalanish, eng asosiysi, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish, farovonlikni sifat jihatdan yanada yuqori ko'tarishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek: Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatbardoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash, faoliyat ko'rsatadigan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirish mumkin.

O'zbekistonda sanoatni o'rta va uzoq muddatda barqaror rivojlantirishga mo'ljallangan dasturni bevosita amalga oshirish to'g'ridan-to'g'ri mintaqalarda iqtisodiy o'sish va korxonalarni hududlarda joylashtirishga bog'liqdir. SHu sababli mamlakatimizda rivojlanishning milliy modeliga mos keluvchi ishlab chiqarishni joylashtirish siyosatini shakllanishining ilmiy-uslubiy asoslarini tahlil qilish asosida nazariy va uslubiy takliflar tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bu o'rinda mintaqaviy iqtisodiyot fanining shakllanishi davridagi klassik nazariyalarni chuqurroq o'rganish va umumlashtirilgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiq. Klassik qarashlarga muvofiq mintaqaviy rivojlanishning uchta asosiy yunalishi mavjud. Birinchisi, korxonalarni joylashtirishning eng qulay variantlarini izlab topish, ya'ni joylashtirish siyosati. Ikkinchi yo'nalish, mintqa yoki alohida markazni o'zining optimal tarkibini shakllantirishga bo'lgan intilishidan iborat. Uchinchidan, yuqoridagi ikkita yo'nalishni yagona nazariy va uslub sifatida qarash maqbul hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, mintaqaviy rivojlanish va joylashtirish siyosati, jumladan, sanoatni rivojlantirish o'zaro bir-biriga bog'liq yaxlit jarayon bo'lib, ularni sun'iy ravishda ajratib bo'lmaydi. Mintaqaviy rivojlanish va joylashtirish siyosatini tahlil qilish va prognozlashtirishni milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda mamlakat (mintaqalararo darajada), shuningdek, alohida mintqa doirasida (hududiy tarkibni shakllantirish) amalga oshirish mintaqaviy iqtisodiyot tamoyilining rivojlanish kontseptsiyasiga to'g'ri keladi.

Jahon tajribasida mintaqaviy rivojlanish nazariyasining turli ko'rinishlari va shakllari mavjud. Xususan, mavjud nazariyalar (Keyns, neoklassik, institutsional, evolyutsion, moslashuv) tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ular orasidagi asosiy farq, mintaqaviy iqtisodiyot va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda mamlakatning o'rni qanday darajada bo'lishi bilan bog'liq. Jumladan, O'zbekistonda mustaqillik yillarida mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mamlakatning bevosita ishtirokida amalga oshirilgan bo'lib, uning o'rni yuqori

bo'lganligini ta'kidlash lozim. O'z navbatida, yirik sanoat korxonalarini joylashtirishda ham mamlakatning faol ishtirokini kuzatish mumkin.

O'zbekistonning transport-geografik joylashuvi tashqi bozorga chiqishda transport xarajatlarining ob'ektivini hatdan yuqori bo'lishiga olib keladi. SHu sababli transport omili ko'proq e'tiborni sanoat korxonalarini rivojlantirishda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini taqozo etadi. Markazdan uzoqda joylashgan Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun transport omilining o'rni yanada muhimroq bo'lib, sanoat korxonalarida mahsulot tannarxining shakllanishidagi o'rni nisbatan yuqoridir.

Ishchi kuchi salohiyatining mavjudligi va aglomeratsiya, ya'ni, bir joyda sanoat korxonalarini jamlash omillari ham mamlakatimiz uchun amaliy ahamiyatga ega. Ko'p mehnat talab qiladigan sanoat tarmoqlari va korxonalarini joylashtirish, aglomeratsiya samaradorligidan foydalanish mintaqalarda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ustuvor yo'nalishlar qatoriga kiradi. Mamlakatimizda "Navoiy" erkin industrial iqtisodiy zonaning tashkil etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

"Bozor zonolari" nazariyasida asosiy e'tibor korxonalarni joylashtirishda foyda, soliq, tannarx, bojxona to'lovlari va boshqa bozor iqtisodiy indikatorlaridan keng foydalanishga qaratiladi. Bunda matematik modellarni qo'llash orqali, mahsulotni sotish doirasining optimal darajasi aniqlanadi. Ishlab chiqarishni tashkil qilishning iqtisodiy samaradorligi ushbu doira ichida bo'lishi asoslanib beriladi. Doiradan tashqarida mahsulotni sotish norentabel hisoblanadi.

O'zbekistonda ushbu nazariyaning yo'nalishlari amaliyotda yirik strategik mamlakat korxonalarini joylashtirishda nisbatan kamroq xususiy korxonalar, ayniqsa, kichik biznes faoliyatida ko'proq qo'llanilmoqda, deyish mumkin.

"O'sish qutblari" va "rivojlanish markazlari" nazariyasi XX asr oxirlari va XXI asr boshlarida amaliyotda keng qo'llanila boshlangan. Uning asoschisi, nemis olimi V. Kristaller "markaziy joylashuv" taklifini, aholining joylashuviga qarab va taklifdan kelib chiqqan holda mahsulot va xizmatlarni sotib olish masofasini

e'tiborga olgan holda turli darajadagi hududlarda (qishloqlar, poselka, kichik, o'rta, katta shaharlar) korxonalarni tashkil etish lozimligini isbotlagan.

“Markaziy joylashuv” nazariyasidan kelib chiqqan holda “o'sish qutblari” (nuqtalari) va “rivojlanish markazlari” nazariyasi shakllangan. Ushbu nazariya asoschisi frantsuz olimi F.Perrudir. U ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanish tendentsiyasiga qarab, ularning ayrim guruhlariga bo'lishni taklif etgan. Jumladan, nisbatan sekin rivojlanayotgan tarmoqlar (to'qimachilik, ko'mir sanoati va boshqalar), rivojlanayotgan sohalar, ammo boshqa tarmoqlarga deyarli ta'sir ko'rsatmaydiganlar (iste'mol tovarlari ishlab chiqarish), tez rivojlanayotgan va ushbu jarayonga boshqa tarmoqlarni ham jalb qilayotganlar (mashinasozlik) guruhlariga ajratilgan.

“O'sish nuqtalari” nazariyasining yana bir ko'rinishi "yangilikning tarqalishi" (diffuziyasi) deb nomlanadi. Ushbu nazariyaga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish jarayonining oqibati yangiliklarning shakllanishi va tarqalishi, jumladan, texnologik takomillashtirish, yangi xom ashyo, energiya, tovarlar va xizmatlarni amaliyotga joriy etish natijasida sodir bo'ladi.

"Yangiliklarning tarqalishi" nazariyasi hozirda ikkita yo'nalishda rivojlanmoqda. Birinchisi, ishlab chiqarish texnologiyalari sohasida, ikkinchisi esa, iste'molning rivojlanishi, ya'ni, yangi tovarlar va xizmat turlarining paydo bo'lishidir. Yangilanish o'sish qutblari va rivojlanish markazlari shakllangan holda, atrof hududlarga tarqaladi. Ko'pgina holatlarda o'sish nuqtalari katta shaharlar doirasida, ya'ni ilmiy-tadqiqot va loyiha-izlanish tashkilotlari, oliy o'quv yurtlari joylashgan hududlarda paydo bo'ladi. O'sish nuqtalari asosan yuqori ta'lim, madaniyat, ishchi kuchi, ilmiy-texnik salohiyatiga ega bo'lgan shaharlarga xosdir.

Yuqorida tahlil qilingan ishlab chiqarishni joylashtirish nazariyalarini umumlashtirgan holda, shuni ta'kidlash lozimki, ularning ko'pi XX asrda shakllangan va hozirgi globallashuv va informatsion texnologiyalar davrida to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Ularni absolyutlashtirish ham mumkin emas.

Shu sababli joylashuv nazariyalarining har bir mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tanqidiy o'rganish va ijobiy tomonlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

1.3. Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlarining mohiyati

Hozirgi davrda milliy iqtisodiyotlarning dunyo bozoriga integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonlarining tobora chuqurlashib borishi natijasida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi taraqqiyot bosqichlaridan keskin farq qiladi. Integratsiyalashish va globallashish jarayonlari dunyo mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotiga muhim ijobiy hissa qo'shishlari barobarida uning salbiy oqibatlari ham mavjudligi muqarrardir. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo'lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish, korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti va unda faoliyat yurituvchi sub'ektlarning raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi.

Mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturni amalga oshirishning muhim ustuvor yo'nalishiga aylanishi lozim.³

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

³ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qobiliyati.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan chora-tadbirlarning eng muhimlari sifatida korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada kuchaytirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish, tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish jarayonlarini davom ettirish, xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohasini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, bank ishini yanada takomillashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Ichki va tashqi bozordagi raqobatbardoshlik o'zaro jiddiy farq qilishi mumkin. Bu bozorlarda ichki va tashqi muhitni tashkil etuvchi omillarning turlicha ekanligi, ya'ni to'lovga qodir talab hajmi, ichki va tashqi bozordagi narxlar o'rtasidagi farq, olib borilayotgan tashqi savdo siyosati va h.k.lar bilan belgilanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o'zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog'liq.

Frantsuz iqtisodchisi F.Perruning ta'rifiga ko'ra, iqtisodiy birlikning tarkibi ayni sharoitda va shu lahzada uni tavsiflaydigan proportsiyalar va nisbatlar majmuidir. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtasidagi proportsiyalar va o'zaro nisbatlar.

Murakkab tizim sifatida iqtisodiyotning barcha elementlari orasidagi shakllangan va o'zgarib boradigan proportsiyalar va o'zaro nisbatlar tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflaydi.

Milliy xo'jalikning maqbul tarkibi, alohida turdagi ishlab chiqarishlarning rivojlanganligi va balanslashganligi, ularning o'zaro mutanosibligi har qanday


mamlakat rivojlanishining pirovard maqsadi – aholi turmush farovonligining oshishiga xizmat qiladi.

Mamlakat xo'jaligining turli bo'lak yoki qismlarga qanday belgilar asosida ajratilishiga ko'ra iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining turlari o'zaro farqlanadi (1-chizma).

Mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi shakllanishida uning tabiiy resurs salohiyati, geografik joylashuvi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lsada, uni o'zgartirish va takomillashtirishda mamlakatning tarkibiy siyosati hal qiluvchi rol o'ynaydi.

1 chizma

Mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishining turlari



Tarkibiy o'zgarishlar siyosati – mamlakat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida tarkibiy o'zgarishlar siyosati:

- mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyalashuv darajasini ko'tarish, ya'ni ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar nomenklaturasini kengaytirish, YaIM,

eksport kabi ko'rsatkichlarda alohida tarmoq mahsuloti yoki mahsulot guruhining ustunlik qilishiga barham berish;

- tashqi bozorlardagi kon'yunktura o'zgarishlariga kam ta'sirchan bo'lgan tarmoqlar va sohalarning YIM va bandlikdagi ulushining yuqori bo'lishini ta'minlash;

- tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, shuningdek eksport qiluvchi korxona va tarmoqlarning xom ashyo va butlovchi qismlar bilan ta'minlanishida mahalliy korxonalar ulushining ustunligiga erishish;

- yuqori texnologiyalar va zamonaviy texnika bilan qurollangan, arzon va sifatli, tashqi bozorda bimalol raqobatga kirisha oladigan sanoat tarmoqlarining sanoat ishlab chiqarishi ko'rsatkichlaridagi ulushini oshirish;


- kon'yunktura o'zgarishlariga tez moslashuvchan, kapital sig'imi past bo'lgan soha va tarmoqlarning yalpi iqtisodiy ko'rsatkichlardagi salmog'ini oshirishga erishish yo'nalishlarida olib borilmoqda.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirib borish, chuqur qayta ishlangan, tayyor, qo'shilgan qiymat hissassi yuqori bo'lgan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlarni jadal rivojlantirish va ularning YaIM hamda mamlakat eksportidagi ulushini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda olib borilgan izchil tarkibiy siyosat natijasida iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida sifat siljishlari ro'y berdi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarishining YIMdagi ulushi 2010 yilda 14 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013 yilda bu ulush 24 foizga yetdi (2-chizma).


Shuningdek, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi shu davrda 8 foizdan 12 foizgacha ko'tarildi. Sanoat, transport va aloqa tarmoqlarining YaIMdagi ulushi ortishi soliq yukining kamaytirilishi, bu tarmoqlarga investitsiyalar ustuvor tarzda jalb qilinishi, yirik investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi natijasida ro'y berdi.

Chizma 2.



Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari shu yillarda muttasil yuqori sur'atlarda o'sdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'siriga qaramasdan tarmoqda o'sish sur'ati 2008 yilda 12,7 foizni, 2009 yilda esa 9 foizni tashkil etdi (3-chizma).

Chizma 3



Taqqoslash uchun qayd etish mumkinki, 2011 yilda sanoat ishlab chiqarishi hajmi oldingi yilga nisbatan Qozog'iston Respublikasida atigi 1,7 foizga o'sgan bo'lsa, Rossiya Federatsiyasida 10,8 foizga, Ukrainada 21,9 foizga qisqardi.

2013 yilda yuqori o'sish sur'atlari mashinasozlik va metallni qayta ishlash (117,4%), kimyo va neft-kimyo, yoqilg'i (110,3%), qurilish materiallari (108,7%), qora metallurgiya (108,4%) va oziq-ovqat (108,2%) sanoatida qayd etildi.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish borasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga alohida urg'u berildi:

1) korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsiya aloqalarini o'rnatish va kengaytirish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha ishlarni davom ettirish;

2) mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turini kengaytirish va hajmini oshirish orqali iste'mol bozorini ular bilan to'ldirish va mutanosibligini ta'minlash;

3) aholiga xizmat ko'rsatish sohasini yanada kengaytirish, xizmat ko'rsatish sohasining YIMdagi ulushini 49 foizga yetkazish;

4) kichik biznesni jadal rivojlantirish, sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish;

5) tashqi savdo aylanmasi, shu jumladan eksportning tovar tarkibini yanada diversifikatsiya qilish.

Bu vazifalar kompleks tavsifga ega bo'lib, bir-birini to'ldiradi va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan optimal tarkibini shakllantirish maqsadiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik *palatasi* va *Senatining qo'shma majlisidagi* (2012 yil 27 yanvar) ma'ruzasida Oliy Majlisning qonun ijodkorligi faoliyatida mamlakatimizda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlarni, qulay investitsion muhitni shakllantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash, bank-moliya tizimini

rivojlantirishni normativ-huquqiy jihatdan ta'minlash masalalari alohida o'rin egallaganligini ta'kidlab o'tdi.

Bu davrda xususiy mulkni huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish, mamlakatimizda har tomonlama baquvvat mulk egalari sinfini shakllantirish, fermerlik harakatini mustahkamlash, iqtisodiyotni yanada liberallashtirishni ta'minlash, tadbirkorlik, avvalo kichik biznes faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish, keng tarmoqli bozor infratuzilmasini barpo etishni ko'zda tutadigan qonun hujjatlarining butun bir majmuasi qabul qilindi.

Aholi daromadlari va xalq farovonligini uzluksiz oshirib borish, keng miqyosdagi ijtimoiy dasturlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish masalalari parlamentning e'tibor markazida bo'ldi.

Iqtisodiy islohotlarni qonuniy jihatdan ta'minlashga yo'naltirilgan bunday va boshqa bir qator tadbirlar 2010-2013 yillarga mo'ljallangan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan Inqirozga qarshi choralar dasturini samarali amalga oshirishni huquqiy ta'minlash, dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida O'zbekistonga iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolish va aholining real daromadlarini oshirish imkonini berdi ⁴.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qo'lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o'zni ahamiyatli hisoblanadi. SHunga ko'ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish.

⁴ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. - Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 29 yanvar.

Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»³. Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon. Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R. Nureev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki o'ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo'yiladi. Xo'jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo'lmasligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi ⁵.

Umuman olganda, modernizatsiya an'anaviy jamiyatdan industriallashtirilgan, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy jarayonlarni qonunlarga tayangan holda oqilona boshqarishga asoslangan jamiyatga o'tish jarayonlarini namoyon etadi. Nazariyada modernizatsiya deganda «an'anaviy tarzda yopiq jamiyat»ga qarama-qarshi o'laroq «zamonaviy ochiq tarzda yopiq jamiyat»ni shakllantirishga olib keluvchi industriallashtirish, sekulyarlashtirish, urbanizatsiya, umumiy ta'lim, vakolatli siyosiy hokimiyat tizimlarining qaror topishi, hududiy va ijtimoiy safarbarlikning kuchayishi kabi jarayonlarning majmui tushuniladi.

Bundan ko'rinadiki, modernizatsiya juda keng tushuncha bo'lib, bugungi kunda uni jamiyat hayotining turli jabhalarini tubdan o'zgartirish, yangilash, bu borada taraqqiyotni jahondagi mavjud ilg'or andozalar tomon yo'naltirish va takomillashtirish jarayonlarining majmui sifatida ifodalash mumkin.


Bugungi kunda modernizatsiyalash jarayonlari mamlakatimiz hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan. Ayniqsa, mazkur yo'nalishlar orasida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash muhim o'rin tutadi (4-chizma). Zero, milliy

⁵ Nureev R. Modernizatsiya ekonomiki: kontseptsii sredstva. - <http://www.soob.ru/n/2013/10/c/6>.

iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'kturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyot turli darajalari ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir.

4-chizma

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari va vositalari ⁶



Zero, milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali amal qilishini ta'minlash, uni jahonning rivojlangan mamlakatlari taraqqiyoti darajasiga olib chiqish, turli siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'kturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan «chidamliligi», mustaqil rivojlana olish imkoniyat va

⁶ Manba: Saidova G. Modernizatsiya, texnicheskoe obnovlenie i diversifikatsiya proizvodstva, shirokoe vnedrenie innovatsionnykh texnologiy – neobxodimoe uslovie vxoda Uzbekistana na novye rubeji na mirovom mke / «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanidagi taqdimot materiallari. – T., TDIU, 2009 yil 5 may.

salohiyatlari aynan iqtisodiyot turli darajalari ishlab chiqarish jarayonlaridagi tub islohotlar va ularning natijalariga bog'liqdir. Biroq, shu bilan birga ishlab chiqarishni modernizatsiyalash ijtimoiy-iqtisodiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlarga chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalar o'rtasida jadal isloh etish va modernizatsiyalash jarayonlarining amalga oshirilishida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlashga harakat qilish lozim. SHu o'rinda modernizatsiyalash jarayonining jamiyat har bir a'zosining ongliligi va mustaqilligini oshirishdagi o'rniga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. CHunki, iqtisodiyot hamda mamlakat hayotining boshqa sohalarini modernizatsiyalash eng avvalo ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolari dunyoqarashi, tafakkurining o'zgarishi, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liqdir.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan ko'rinadiki, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish – zamon talabidir. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatorida munosib o'rin egallash, milliy mahsulotlarimizning jahon bozorlaridagi raqobatdoshligini ta'minlash, shu asosda eksport hajmini sezilarli darajada oshirish mavjud soha va tarmoqlarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash asosida modernizatsiyalashni taqozo etadi. Ayni paytda, jahon bozoridagi ehtiyoj va talabning o'zgarishini hisobga olgan holda iqtisodiyotimiz tarkibiy tuzilmasini takomillashtirib borish, bu maqsadda yangi, zamonaviy tarmoqlarni barpo etish va jadal rivojlantirish lozim bo'ladi.

2014 yil yakunlaridan xulosa qilish mumkinki, 2014-2015 yillarga mo'ljallangan dasturining dastlabki bosqichida belgilangan vazifalar muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirildi. Endilikda mazkur dasturning navbatdagi chora-tadbirlarini so'zsiz bajarishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. CHunki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining navbatdagi bo'hronlari domiga tushib qolmaslik, uning uzoq muddat davom etadigan, asoratli ta'sirlaridan tezroq xalos bo'lishda inqirozga qarshi choralarni mantiqan oxiriga yetkazish va shu asosda iqtisodiy

rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash muhim o'rin tutadi.

Yurtimiz salohiyatining tobora yuksalib borayotgani, so'nggi yillarda ishga tushirilgan yangi zamonaviy quvvatlar, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning rivoji, tizimli ravishda amalga oshirilayotgan islohotlar va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi, mamlakatimizda yaratilgan nihoyatda qulay investitsiya muhiti 2013 yilda iqtisodiy rivojlanishning yanada yuksakroq erishilgan ko'rsatkichlari. (4-jadval).

jadval 4

O'zbekiston Respublikasi 2013 yilda iqtisodiy rivojlanishining erishilgan ko'rsatkichlari .

Ko'rsatkichlar	Qo'shimcha o'sish, oldingi yilga nisbatan, foizda
Yalpi ichki mahsulot	8,3
Sanoat mahsuloti	8,3
Qishloq xo'jaligi	5,0
Asosiy kapitalga investitsiyalar	22,1
Investitsiya kiritish hajmini YaIMga nisbatan	30,0
Eksport hajmi	8,5
Inflyatsiya darajasi	7-9
Mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi	40,0
Ish haqi darajasining o'sishi	30,0
Xizmatlarning YaIMdagi ulushi	49,0
Kichik biznesning YaIMdagi ulushi	52,5

Jadvaldan ko'rinadiki, 2013 yilda yalpi ichki mahsulot va sanoat mahsulotlarini 108,3 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini 105 foizga oshirish,


iqtisodiyotga investitsiya kiritish hajmini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 30 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

Mahsulot eksportini 8,5 foizga oshirishni ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ulushini oshirish hisobidan uning tarkibini sifat jihatidan o'zgartirish vazifasi qo'yilmoqda.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish iqtisodiyotning har bir tarmoq va sohasida tegishli rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Jumladan, 2013yilda sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmini 108,3 foizga oshirish vazifasi tarmoqning imkoniyatlari, foydalanilmayotgan salohiyatini yana bir bor tahlil qilish, bu borada o'sib borayotgan ichki va tashqi talabni hisobga olgan holda yangidan-yangi quvvatlarni ishga tushirishni taqozo etadi. SHunga ko'ra, yil boshidanoq 2013 yilda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida bir qator dasturlar loyihalari ishlab chiqilmoqda (5-chizma).

5-chizma.

2013 yilda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish borasida qabul qilingan dasturlar hamda ishlab chiqilayotgan dastur loyihalari




Shuningdek, 2013yilga nisbatan byudjet-moliya va pul-kredit siyosatini, birinchi navbatda, resurslar va energiyani tejaydigan zamonaviy texnologiyalarni

joriy etish hisobidan tejamkorlik rejimini yanada qat'iyashtirish mo'ljallanmoqda. Inflyatsiya darajasi 7-9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Oldimizga qo'yilgan bunday maqsadlarga erishish, avvalo, o'z imkoniyat va resurslarimizni qay darajada safarbar etishimizga, hamon katta xavfi saqlanib qolayotgan inqiroz oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2010-2013 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturida ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni so'zsiz bajarishni nechog'lik ta'minlay olishimizga bog'liq.

6-chizma

O'zbekiston hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan



Shu o'rinda Prezidentimiz tomonidan bir necha bor ta'kidlangan muhim masalaga e'tiborni kuchaytirish lozim. Bu masala – mamlakatimizning qay bir hududi bo'lishidan, uning iqtisodiy resurslar va salohiyatga qanchalik boyligidan qat'iy nazar, ushbu hududning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, aholi farovonligi va

turmush darajasini yuksaltirish maqsadida barcha kuchlarni safarbar etish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizning hududlarida tarmoq Dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan yirik investitsion loyihalarga ko'ra (6-rasm), qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun har bir hudud rahbarlari, yetakchi mutaxassis va xodimlari, qolaversa, shu hududning barcha aholisi o'z kuch-quvvat va imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishi lozim bo'ladi. Ayniqsa, hudud rahbarlari ushbu kuchlarni maqsadga muvofiq yo'naltirishlari, ularni o'zaro uyg'un holda jamiyat manfaatlari ostida birlashtirishlari lozim bo'ladi.

Yo'llar qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, yo'llar bo'yidagi infratuzilmalarni rivojlantirish yuzasidan 2015 yil uchun belgilangan vazifalarni bajarish: 2015 yilda 260 kilometr temir yo'llarni qayta tiklash, mazkur sohada 13 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish mo'ljallanmoqda, 124,1 kilometrlik Angren – Pop elektrlashtirilgan yangi temir yo'lining qurilishi, 40 kilometrlik Maroqand-Qarshi va 325 kilometrlik Qarshi-Termiz temir yo'l uchastkalarini elektrlashtirish, Jizzax-Yangier elektrlashtirilgan temir yo'l tarmog'i qurilishining ikkinchi bosqichini amalga oshirish kabi loyihalar rejalashtirilgan.

II-BOB. SANOAT TARMOQLARINI MODERNIZATSYALASHDA FAOL INVESTITSİYALARNI AXAMIYATI

2.1. Rivojlangan mamlakatlarning innovatsiya jarayonidagi tajribalarini respublikamiz korxonalarida qo'llash usullari

Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yangi texnika-texnologiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan faoliyatni moliyalashdagi mamlakatning roli ancha faol bo'lib, fakat mamlakat tashkilotlari tomonidangina amalga oshirilmaydi.

Aktsiyalar paketlariga mamlakat egalik qilayotgan aktsiyadorlik jamiyatlarida aktsiyadorlar, ayniqsa, minoritariylar kam hajmdagi aktsiyalarga egaligi va aktsiyalar paketlarining tarqoqligi tufayli boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonidan amalda chetda qolmoqda. Buning natijasida ishlab chiqarish ustidan boshqaruvni ilgarigidek direktorlik korpusi amalga oshirmoqda. Xorijiy kompaniyalar tajribalarini chuqur o'rganish va tahlil qilish asosida korxonalar uchun korporativ boshqaruvning namunaviy tuzilmalarini yaratish; real iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi aktsiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv tizimini isloh qilgan holda amaliyotga joriy qilish; boshqaruvning sovet davriga xos eski va yaroqsiz rejali-taqsimot tizimi va lavozimlar nomenklaturasidan qat'iy voz kechish;

Ilmiy tadqiqot konstruktorlik ishlari mamlakat tomonidan turli shakllarda qo'llab quvvatlanishi mumkin. Jumladan, ilmiy tadqiqotlar uchun bevosita byudjet mablag'larini ajratish mamlakat tashkilotlari tomonidan moliyalash shartnomalar tuzish subsidiyalar ajratish orqali amalga oshiriladi. Ayni xolatda mamlakat yirik xarajatlar talab kilinadigan va ko'plab tavakkalchilikka ega bo'lgan fanning yetakchi yo'nalishlaridagi ko'p kapitalli tadqiqotlarni moliyalashni o'z bo'yniga oladi.

Ilmiy tadqiqotlarni bilvosita moliyalashning turli usullari quyidagilardir: xususiy kompaniyalar innovatsiya jarayonini rag'batlantirish, shuningdek ular

investitsiyasini yangi asbob uskunalar olish uchun kengaytirish maqsadlarida soliq va amortizatsiya imtiyozlaridan foydalanish.

Mamlakat ayni vaqtda kichik tadqiqot biznesi uchun shart sharoitlar yaratishga ko'maklashadi, mamlakat tomonidan fan texnika taraqqiyotini bevosita moliyalash xususida quyidagilarni keltirish mumkin. U bir necha usullar orqali amalga oshiriladi: birinchidan ma'muriy tashkiliy usulda xodimlar shtati nisbatan barqaror mamlakat muassasalari yoki laboratoriyalariga mablag'lar tasdiqlangan xarajatlar rejasiga muvofiq xolda qoplashga ajratiladi. Axoli Masalan, Germaniyada moliyalashning bunday turining taxminan 40 foiziga mamlakat mablag'i ajratiladi.

Ikkinchisi dasturiy va maqsadli usul bo'lib unda mablag'lar aniq bir vazifaga ajratiladi. Bu xol moliyalash organi mamlakat idorasi va ijrochi odatda kompaniyalar o'rtasida shartnoma tuziladi. AQSHda ilmiy tadqiqotlarga sarflanadigan 70 foiz mamlakat xarajatlari shartnomaviy moliyalash asosida amalga oshiriladi.

Uchinchi usul buyicha subsidiyalar grantlar beriladi. Subsidiyalarning o'ziga xosligini quyidagicha belgilash mumkin:

- ular kichik ijrochilarning asosiy ish joyida oylik ish xaqidan va unga boaliq bo'lmagan xolda beriladi;
- subsidiyalar qaytarib berilmaydi;
- subsidiya olgan olim yoki ilmiy jamoa olgan mablag'larni mustaqil sarflaydi.

AQSH da mamlakat innovatsiya siyosatining ob'ekti bu asosan xususiy biznesdir. Mamlakatning bu boradagi siyosati mavjud ilmiy texnik yutuklardan xo'jalikda foydalanishga imiy texnik majmuada ichki aloqalarni mustaxkamlashga qaratilgan.

Mamlakat innovatsiya siyosatining usul va vositalari ancha keng. Bu yoki bu ma'noda biznesning innovatsion faolligini rag'batlantiruvchi turli xil mamlakat tadbirlari kiradi. Amerikalik mutaxassislarning ta'kidlashicha eng samarari tashkiliy shakllaridan biri universitet, sanoat, tadqiqot markazlari sanaladi.

Mamlakat ishtirokida tashkil etiladigan bunday markazlar doirasida juda keng ko'lamdagi ilmiy texnik masalalarni xal etish imkoni mavjud. Sanoat korxonalari va universitetlarning xamkorligi tadqiqotlariga oid yirik dasturlar mamlakatning maqsadli ilmiy tadqiqot dasturlariga ko'p soxada muqobil sanaladi. Ular printsip jixatidan ishtirokchilar faoliyatining boshqa korporatsiya mexanizmini nazarda tutadi.

O'zbekistonda AQSH mamlakat innovatsiya siyosatining ma'lum bir tomonining qo'llash mumkin. Bunda mamlakat moliyaviy mablag'larining umumlashish va sanoat moddiy texnika bazasini malakali oliy o'quv yurtlari kadrlari bilan ta'minlashi rag'batlantirilishi lozim. Uzoq istiqbolga mo'ljallangan tavakkal ilmiy texnika loyixalariga mablag' ajratishga sanoat korxonalarini qiziqtirish uchun mamlakat dastlabki xarajatlarini o'z buyniga olib kelmasdan ishtirokchi firmalarga kashfiyot va ixtirolaridan bepul litsenziyalar xam berishi kerak.

AQSHdagi eng yirik kompaniyalarda ishlab chiqarish xajmi ko'pincha eng maqbul me'yordlaridan oshadi, aynan shu narsa ilmiy-texnika soxasi rivojlanishida monopoliyani to'xtatadi. Kichik firmalar faoliyatining muvafakiyati xam shunda. O'zbekistonda yirik firmalari ko'makchisi sifatida ishlaydigan kichik firmalarni tashkil etish uchun shart sharoitlar yaratish zarur.

Yaponiyada innovatsiya siyosatining amalga oshirishning o'ziga xos mexanizmi mavjud, ya'ni Yaponiya xukumatining dasturiy xujjatlarida bayon etilgan ilmiy texnika yangiliklari yaratilishida strategik tadqiqotlar yetakchilari, yulboshchilari guruxi o'qitilishini ta'minlashga qaratilgan. Ayni paytda innovatsiya siyosatini qat'iy ko'rish zaruriyatidan kelib chiqqan xolda shu mamlakatning boshqalardan afzal bo'lgan o'z texnika va texnologiyasini ishlab chiqish xamda tadbiq etish patent, litsenziya savdosi nisbatan talabchanlikni oshirish orqali rag'batlantiriladi.

Yaponiyada ishlab chiqilgan mazkur siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos tomoni shundaki, kompaniyalarning loyixalarga jalb etish mexanizmidir. Mamlakatning bu jarayondagi roli xususiyl sektorlamlar jamoalari sanoat ilmiy

tadqiqotlarni rag'batlantirishda ko'rinadi. U birinchi navbatda yirik korporatsiyalar bilan xamkorlik qilishga intildi.

Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, demak O'zbekistonda shakllanayotgan innovatsiya soxasi jiddiy texnologiyalarni amalga oshirish assotsiativ shaklda ilmiy tekshirish tashkilotlari va korxonalari imkoniyatlari vaqtinchalik yoki doimiy tarzda birlashtirishni talab etadi. Albatta, bunda bosh loyixani amalga oshirish uchun mamlakat buyurtma berish orqali ko'maklashmog'i kerak.

Sanoati rivojlangan ilg'or mamlakatlar innovatsiya siyosatining zamonaviy mamlakat strategiyasiga xos bo'lgan bir qator umumiy xususiyatlarni sanab o'tish mumkin:

- ilmiy tadqiqotlarning mamlakat tomonidan moliyalanishi;
- soliq va amortizatsiya siyosatiga mos xolda rivojlangan kontrakt tizimi yordamida biznesga ilmiy tadqiqotlar uchun ta'sir o'tkazish;
- universitetlar va mamlakat ilmiy markazlar umummilliy ahamiyatga ega ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish;
- ta'lim tizimini moliyalash va tashkiliy takomilashtirish, ayniqsa, yuqori malakali kadrlar tayyorlash;
- ilmiy texnik ma'lumotlarni tarqatish tizimini yanada rivojlantirish.

Yuqorida sanab o'tilgan sanoati rivojlangan mamlakatlardagi mamlakat innovatsiya soxasi strategiyasi umumiy tomonlari u yoki bu daraja O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin. Bu o'rinda albatta ilgari to'plangan tajriba an'ana va xukumatning mavjud imkoniyatlarini xisobga olish kerak bo'ladi.

Frantsiyada ilmiy texnikani rivojlantirish afzalliklarini ishlab chiqish vazifalari uch yunalishda olib boriladi. Birinchi darajadagi ishlar asosan ilmiy tadqiqotlar markazi tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur markaz ilmiy tadqiqotlarni, jumladan, ijtimoiy fanlar buyicha tadqiqotlarni moliyalash borasidagi milliy agentlik sanaladi, u asosan fundamental tadqiqotlarni qo'llab quvvatlaydi.

Ilmiy texnika va innovatsiya rivojlanishning ustunliklarini bashorat qilish xamda belgilash bo'yicha ishlar esa Frantsiyadagi yirik xususiy sanoat va mamlakat korxonalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu borada bir qator

muammolar mavjud bo'lsada Frantsiya yirik bashorat qilish loyixalarini amalga oshirish buyicha katta tajribaga ega. Xususan atom va molekulyar fizika qattiq jismlar fizikasi rivojlanish buyicha bashoratlar qilingan.

Innovatsion jarayonlarni doimiy tadqiq etish uchun YVROPA xamjamiyati 1983 yilda SPRINT innovatsiyalar va texnologiyalar o'zlashishga ko'maklashishning strategik dasturini yaratdi. Bu Yevropada innovatsion jarayonlar samaradorligini belgilovchi omillarning davriy tadqiq etishni boshlab berdi. Ushbu dasturni amalga oshirish natijasida to'plangan ma'lumotlar innovatsiya to'g'risidagi yashil kitob deb nomlanuvchi ma'ro'zaning yozilishiga sabab bo'ldi. Unda innovatsiya jarayonlarini rag'batlantirishning mavjud imkoniyatlari taklif etilgan.

MDH mamlakatlaridagi iqtisodiy islohotlarga texnik jihatdan ko'maklashish buyicha TESIS dasturi birinchi galda o'z oldiga xususiyashtirishning bozor shakllari moliya tadbirkorlikni rivojlantirish tadbirkorlik infratuzilmasini yaratilish sohasidan yevropa nou-xau tajribalarini o'zlashtirishga qaratilgan. Ko'rinib turibdiki, u asosan boshqaruv, axborot va moliya sohasidagi loyixalarni moliyalashga qaratilgan.

INTASS dasturi esa axborotlar va xodimlar bilan ilmiy texnik almashuvining an'anaviy kooperativ shakli sanaladi, u innovatsiya sohasi uchun deyarli ahamiyatsiz.

Xulosa kilib aytganda innovatsiya jarayonlarini boshqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish ilmiy texnik ta'lim tizimini modernizatsiyalashni ilmiy imkoniyatlarini ochish, xorij texnologiyasini keltirish, raqobatbardoshlik yunalishlarini aniqlash va boshqa masalalarni hal etishga qaratilgan.

Joriy yil 15 iyun kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasida "Sanoatga investitsiyalarni jalb qilish: amaliyot, qonunchilik, muammolar va hal etish yo'llari" mavzuida seminar bo'lib o'tdi.

Kun tartibiga ko'ra, seminarda Iqtisodiyot vaziri, Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo vaziri, Moliya vazirining o'rinbosarlari, Savdo-sanoat palatasi mutaxassisining ma'ruzalari tinglandi.

Ma'ruzachilar ta'qidlab o'tganlaridek, O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur va aniq maqsadli tarkibiy tub o'zgarishlar so'nggi yillarda iqtisodiyotni yuqori sur'atda yuksaltirish va sanoatni yanada rivojlantirishni ta'minladi. 2010 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoat ulushi 11 foizni tashkil etgan bo'lsa, ayni paytda bu ko'rsatkich 24 foizga yetdi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda neft-gaz, mashinasozlik, elektr texnika, kimyo, metallurgiya sanoatida o'nlab yangi yirik korxonalar barpo etildi. Iqtisodiyotimizning yangi tarmog'i - rivojlangan infratuzilmaga ega avtomobil sanoati tashkil etildi. Ushbu tarmoqda «GM», «MAN» va «ISUZU» kabi jahonda yetakchi kompaniyalarning zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari tatbiq qilingan.

Sanoatni yanada rivojlantirish, iqtisodiyotda uning asosiy tarmoqlarini diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan tarkibiy tub o'zgarishlarni chuqurlashtirish, sanoat tarmoqlari, komplekslari va korxonalarining samaradorligi hamda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"da dastur qabul qilindi.

Mazkur dastur respublikamizda sanoatni rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari va sanoatda umumiy qiymati qariyb 47,5 milliard dollarlik 519 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishni o'z ichiga olgan. Ushbu loyihalarning hayotga tatbiq etilishi yaqin besh yilda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini kamida 60 foizga oshirish, uning yalpi ichki mahsulot tarkibida 2013 yildagi 24 foiz ulushini 2014 yilda 28 foizga ko'paytirishni ta'minlaydi. Mashinasozlik, avtomobilsozlik tarmog'i, kimyo, oziq-ovqat va farmatsevtika sanoati jadal rivojlanib, ularda o'sish sur'atlari ikki baravardan ortadi. Bunda sanoat tarkibida qayta ishlash tarmoqlari ulushi, xususan 80 dan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish hisobidan 2012 yildagi 41 foiz o'rniga 2014 yilda 49 foizga ko'payadi. O'zbekistonda 2008 yilda tashkil qilingan "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona mamlakatlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish,

mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishning muhim omiliga aylanishi lozim. Sanoatni rivojlantirish dasturida “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonada yetakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda avtomobil sanoati uchun butlovchi qismlar, zamonaviy isitish apparaturasi, kimyo va naft-kimyo mahsulotlari, maishiy elektr texnika hamda aloqa vositalarini ishlab chiqarish bo'yicha 33 ta yangi yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni tashkil etish ko'zda tutilgan.

2014 «Mudis», «Standart end Purs» va «Fitch reytings» kabi yetakchi reyting agentliklari O'zbekiston bank tizimi faoliyatini «barqaror» deb baholamoqdalar.

2011 yilda O'zbekistonda 13 ta tijorat banki yuqori reyting baholariga sazovor bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda respublikamizning barcha 26 ta banki ana shunday bahoga loyiq deb topilgan.

- ✓ 2014 yilda 500 dan ziyod yangi korxona, birinchi navbatda, kichik biznes sub'ektlari eksport faoliyatiga jalb etildi.
- ✓ Tashqi savdo balansidagi ijobiy saldo 180 million dollarni tashkil qildi, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxiralari 1 milliard 600 million dollarga ko'paygan.
- ✓ 2014 yilda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki huzuridagi Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining eksportini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan 2400 ta tadbirkorlik sub'ektiga o'z tovar va xizmatlarini tashqi bozorlarga chiqarish bo'yicha huquqiy, moliyaviy va tashkiliy xizmatlar ko'rsatildi.
- ✓ Jamg'arma ko'magida tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1 milliard 250 million dollar miqdoridagi eksport shartnomalari tuzilgan.

-mamlakatimiz sanoat mahsulotlari, ishlar va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozorlarda yetarlicha raqobatbardosh emasligi;

- ilmiy izlanishlar ko'p talab ishlab chiqarishlar sekin rivojlanayotgani;

- sanoatning xomashyoga yo'naltirilganlik darajasi yuqoriligi qolayotgani, eksport tarkibida yoqilg'i-energetika kompleksi mahsulotlari, rangli metall, paxta tolasi, kalava ip ulushining kattaligi, xomashyoni qayta ishlovchi va chuqur qayta ishlovchi korxonalar bu borada ortda qolayotgani;

- kapital qo'yilmalarining hududlar bo'yicha bir me'yorda taqsimlanmagani, 2013 yilda o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi (o'rtacha 50 foizi) Toshkent, Navoiy, Qashqadaryo va Andijon mamlakatlariga to'g'ri kelayotgani, Xorazm va Buxoro kabi chekka hududlarda bu ko'rsatkich 15 foizdan oshmayotgani, qolgan hududlarda bu raqam 15-30 foizni tashkil etayotgani;

- ayrim mamlakatlarda o'z hududining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda sanoatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari aniq belgilanmagani, ko'pincha katta mablag' sarflangan holda ishga tushirilgan sanoat korxonalari bir necha yildan so'ng sarflangan investitsiyalarni qoplamasdan ishlab chiqarish faoliyatini to'xtayotgani va hokazo.

Yuqoridagi muammolar amaldagi huquqiy baza takomillashmagani, uning yetarlicha barqaror emasligi, qabul qilingan qonun hujjatlariga qo'shimcha va tuzatishlar tez-tez kiritilayotgani, soliq solish mexanizmlarining mukammal emasligi, sanoatni barqaror rivojlantirish vazifalarini hal etish borasida vazirliklar, idoralar, hokimliklar va xo'jalik sub'ektlarining vazifalarini qonuniy belgilash yetarli darajada ishlab chiqilmagani tufayli yuzaga kelayotgani xususida so'z yuritib, bunday kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berdilar. Qabul qilingan "2011-2014 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"da dasturni o'z vaqtida amalga oshirish, iqtisodiyotni yanada diversifikatsiya qilish, uni barqaror va jadal rivojlantirish, eksport salohiyatini kengaytirish, shuningdek, dastur asosida ijtimoiy mamlakat vazifalarini hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Sanoat siyosati to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarurligi qayd etildi.

2014 yilda respublikamizda sanoat ishlab chiqarish hajmi 8,3 foiz oshdi. Vazirlar Mahkamasining yil yakunlariga bag'ishlangan majlisida sohani rivojlantirish borasida qo'lga kiritilgan ana shu yutuq alohida ta'kidlandi. Agar

ushbu ko'rsatkich 2011 yilda 6,3 foizni, 2012 yilda 7,7, 2013 yilda esa 8,8 foizni tashkil etgani nazarda tutilsa, yurtimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda barchani hayratda qoldirayotgan barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishilayotgani yaqqol ayon o'ladi. Bunga qaysi omillar hisobidan erishilmoqda? Avvalo, iqtisodiyotimiz, shu jumladan, uning yetakchi tarmog'i — sanoat ishlab chiqarishidagi ulkan muvaffaqiyatlar zamirida bugungi kunda butun dunyoda tan olingan va mashhur besh tamoyilga asoslangan taraqqiyotning "o'zbek modeli" mujassam, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Gap shundaki, istiqlol yillarida ishlab chiqilgan ushbu model talablaridan kelib chiqib, har yili iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini, xususan, sanoatni rivojlantirishga qaratilgan mamlakat va hudud dasturlari qabul qilinayapti. Jumladan, bu dasturlar doirasida o'tgan yili zamonaviy yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalar bilan jihozlangan, umumiy qiymati 4 milliard 200 million AQSH dollarilik 154 ta yirik ob'ekt foydalanishga topshirildi. Yiliga 60 mingta avtoulov ishlab chiqarish quvvatiga ega "Xorazm avtomobil ishlab chiqarish birlashmasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida "Damas" va "Orlando" rusumidagi yengil avtomobillar ishlab chiqarishni tashkil qilish", "Jizzax mamlakatida 760 ming tonna portlandtsement yoki 350 ming tonna oq tsement ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish", "80 ming tonna rux kontsentratini qayta ishlash bo'yicha rux zavodini rekonstruktsiya qilish", "Mis eritish zavodida yangi sulfat kislota tsexini qurish", "Sirdaryo issiqlik elektr stantsiyasini to'liq miqyosda modernizatsiya qilish", "Qoraqalpog'iston Respublikasidagi "Mang'it" mas'uliyati cheklangan jamiyati bazasida yiliga 5 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan kalava ip yigiruv korxonasi tashkil etish" loyihalari shular jumlasidandir.

Sanoatimiz rivojida, ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash dasturi hayotga izchil tatbiq qilinayotgani katta ahamiyat kasb etayapti. Misol uchun, ushbu dasturga muvofiq, 2014 yilda mamlakatimiz tijorat banklari tomonidan mazkur yo'nalishdagi ob'ektlarni moliyalashtirishga ajratilgan kreditlar hajmi avvalgi yildagiga nisbatan 1,2 barobar oshirildi. Shuning hisobidan ma'naviy va jismoniy eskirgan uskunalar

zamonaviylariga almashtirilgach, sanoat tarmoqlarining quvvatlarini orttirish, ichki bozorni yuqori sifatli va arzon mahsulotlar bilan to'ldirish, eksport amaliyotida esa tayyor tovarlar ulushini ko'paytirish imkoniyati yaratildi.

Chindan ham, sanoat tarmoqlari bosqichma-bosqich modernizatsiya qilinib, ilg'or va tejamkor texnologiyalar bilan jihozlangani tufayli yangi turdagi sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi tobora oshmoqda, — deydi Navoiy shahridagi "Ishonch gilam" korxonasi rahbari SHavkat Xolnazarov. — Korxonamiz misolida olsak, bu yerda chet eldan keltirilgan 4 mlrd. 140 mln. so'mlik ilg'or uskunalar o'rnatilib, 2 ta ishlab chiqarish majmuasi ishga tushirildi. Ayni paytda ularda 50 kishi mehnat qilmoqda. E'tiborli jihati, Yevropa standarti bo'yicha har tomonlama takomillashtirilgan dastgohlarimiz kompyuter xotirasiga kiritilgan maxsus dastur asosida boshqariladi. Gilamlarni to'qishda milliy va zamonaviy dizaynga mos yorqin ranglardan foydalanilayotgani esa uning yanada xaridorgirligini oshirayapti. Soha taraqqiyotini ta'minlayotgan uchinchi omilni xorijiy investorlar ishtirokida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilayotgani bilan izohlash mumkin. Gap shundaki, bu borada ko'rilayotgan amaliy chora-tadbirlar natijasi o'laroq, bugungi kunda yurtimizda 90 dan ortiq mamlakatlarning 4 mingdan ziyod ana shunday korxonalari muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar esa O'zbekistonda ham, uning tashqarisida ham yaxshi ma'lum.

Sanoatdagi yutuqlarda, shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining hissasi salmoqli bo'lmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda sohaning ulushi 2010 yildagi 12,9 foizdan 31,1 foizga o'sgani ana shundan dalolat beradi. Bu, albatta, respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish rag'batlantirilayotgani sharofatidir. Aytaylik, sohani qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan ishlar tufayli bultur 20 mingdan ko'proq yangi sub'ektlar tashkil etildi va ularning umumiy soni 195 mingdan ortdi. Bugun ularda ish bilan band bo'lgan aholining 76,5 foizdan ortig'i mehnat qilmoqda. Vaholonki, 2010 yilda bu ko'rsatkich 49,7 foizga teng edi. Bularning bari kichik biznes va

xususiy tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiyotimizning tayanch kuchiga aylanayotganining isboti emasmi?!

Sanoat ishlab chiqarishi ravnaqining to'rtinchi omili sirasiga esa Mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish borasida to'plagan tajribamizni kiritish o'rinlidir. Nega deganda, u bizni tashqi omillarga bog'liqligimizni kamaytirish, ichki talabni shakllantirish va bozorlarimizni zarur iste'mol tovarlari hamda butlovchi mahsulotlar bilan to'ldirish, tashkil etilgan ishlab chiqarish quvvatlarining to'liq faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, valyuta resurslarini tejash va ulardan oqilona foydalanish, aholi bandligi darajasini oshirish bo'yicha muhim rol o'ynashini amalda tasdiqlamoqda. Tarmoqda mahalliyashtirilgan mahsulotlar hajmining jadal o'sib borayotgani, jumladan, 2012 yilda 9,2 foiz bo'lgan bo'lsa, yakunlangan yilda bu ko'rsatkich qariyb 20 foizga yetgani buningtasdig'idir. SHu bilan birga, tarmoqning yuksalishida iqtisodiy nochor, past rentabelli korxonalarni banklarning balansiga o'tkazish usulining nafi ham yaqqol sezilmoqda. Chunonchi, 2014 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, birgina Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki balansiga 68 ta shunday korxona qabul qilingan bo'lsa, uning 40 tasi yangi mulkdorlarga sotildi, 27 tasida ishlab chiqarish faoliyati tiklandi, qolgan bittasini esa salohiyatli investorlarga sotish ishlari olib borilmoqda. Buning uchun jami 181,8 mlrd. so'm, shu jumladan, 2014 yilda 38,7 mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi.

Bu kabi aniq maqsadli chora-tadbirlar tufayli faoliyati qayta tiklangan korxonalar tomonidan jami 392,6 mlrd. so'mlik (shu jumladan, 2014 yilda 152,7 mlrd. so'mlik) mahsulot ishlab chiqarilib, uning 40,7 mln. AQSH dollari (shu jumladan, 2014 yilda 26,1 mln. AQSH dollari) miqdoridagi qismi eksport qilindi. Yana bir muhim jihati, ana shu ishlab chiqarish sub'ektlarida 4971 nafar kishi doimiy ish joyiga ega bo'ldi. Ta'kidlash kerakki, ushbu yo'nalishdagi yaratuvchanlik ishlari 2014 yilda va keyingi yillarda ham izchil davom ettiriladi. SHu maqsadda sanoatni yanada rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, 2015 — 2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni

ta'minlash chora-tadbirlari dasturini tayyorlash doirasida jami qiymati 38 milliard dollarlik 870 ta yirik investitsiya loyihasining ro'yxati shakllantirildi. Bu loyihalarga binoan, 415 ta yangi korxonani barpo etish hamda 455 ta ishlab turgan korxonani modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilash mo'ljallanmoqda.

Biz maqolamizda so'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuz bergan ijobiy o'zgarishlarga tamal toshi bo'lgan omillar va qisman tizimning istiqbolga mo'ljallangan ustuvor vazifalari haqida qisqa to'xtalib o'tdik. Xulosa shuki, mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida uzoqni ko'zlab ishlab chiqilgan sanoatni rivojlantirishning hayotbaxsh strategiyasi har jihatdan o'zini oqlamoqda. U, shubhasiz, kelgusida ham o'zining quvonchli natijalarini berishi muqarrar. Demak, joriy yilda yurtimizda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 108,3 foizga ko'payishi ko'zda tutilayotgan ekan, ana shu yuksak marra ham muvaffaqiyatli zabt etiladi, albatta.

Bu esa O'zbekistonimizning dunyo hamjamiyatidagi nufuzi va mavqeini yanada oshirish, xalqimizning hech kimdan kam bo'lmay yashashini ta'minlashda ulkan va qudratli zamindir.

2.2. Xorijiy investitsiyalar – sanoatni rivojlantirish omili.

Mamlakatni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida investitsiyalarining jumladan, xorijiy investitsiyalarning ahamiyati kattadir. Ma'lumki, xar qanday davlat dunyodan ajralgan xolda jaxon tajribalarini o'rganmasdan, dunyoning yetakchi davlatlari ilm, fan va texnika sohasida erishgan yutuqlarini qabul qilmasdan rivojlanishi mumkin emas. O'zbekiston iqtisodiyotida chukur iqtisodiy islohatlar, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilgan ekan, xorijiy investitsiyalar rivojisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Globallashuv jarayoniga qo'shilish bu dunyoning yetakchi davlatlari bilan xamkorlikda bo'lish, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy soxadagi davlat siyosatining o'zaro manfaatli asosda bu davlatlar siyosatiga mos kelishidir. Zamonaviy jaxon iqtisodiyoti uchun investitsiya faolligi va jaxon iqtisodiyoti globallashuvining kuchayishi muxim ahamiyat kasb etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar va bozor

iqtisodiyotiga utish davrini boshidan kechirayotgan davlatlarning xalqaro mexnat taksimotidagi roli ortib borayotganligi xam unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

SHuningdek, globallashuv jarayoniga iqtisodiyotni erkinlashtirish, ilmiy-texnika taraqqiyotining tezlashishi, rakobatning kuchayishi va boshka bir kator omillar xam xosdir.

«CHet el investitsiyalari» tug'risida O'zbekiston Respublikasining (1998 yil 30 aprelda) qonunining 3- moddasida «CHet ellik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun xujjatlarida taqiqlangan boshqa turdagi faoliyat ob'ektlariga qo'shadigan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir xuquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka doir xuquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olingan xar qanday daromad O'zbekiston respublikasi xududida chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi»

Xorijiy investitsiyalarining umumiy ta'rifi F. Xeniusning 1947 yil AQSHda chop etilgan tashqi savdo lug'atining 2- nashrida quyidagicha berilgan: «Xorijiy investitsiyalar - bir mamlakat xududidan ikkinchi mamlakat xududiga kiritilgan, eksport kilingan investitsiyalar»

Bizningcha chet el investitsiyalari – chet mamlakatlarining milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy (nau-xau) ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bulishi mumkin: qo'shma korxonalarni tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyadorlarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarni barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, shuningdek, zayom va kreditlar olish.

Ma'lumki xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanish garovi va iqtisodni xarakatga keltiruvchi kuchdir. Prezident I.A.Karimov «...kecha faqat xom ashyo maxsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan O'zbekiston bugun dunyo xaritasida o'zining munosib o'rnini egallashga, boshqa taraqqiy topgan mamlakatlar avvalombor, AQSH, g'arbdagi demokratik davlatlar, sharqdagi Yaponiya, Koreya, Malayziya yoki shunga o'xshash davlatlarga teng bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yar ekan, bunda birinchi galdagi chet el sarmoyalari, chet el investitsiyasi nixoyatda katta axamiyat kasb etadi. Ushbu davlatlarning tarixi shuni

ko'rsatadiki, agar bu xorijiy malakatlarga sarmoya kelmasa, investitsiya kelmasa, xech qachon bu davlatlar bugungi rivojlanish darajasiga ko'tarila olmas edi» deb ta'kidlaydilar.

O'zbekiston ulkan xorijiy investitsiyalar yunaltirilayotgan mamlakatlar guruxiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. O'zbekiston jaxon xamjamiyati oldida uzining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasida geografik joylashishi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, xukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshkalar bilan muxim rol uynaydi.

«O'tgan yili iqtisodiyotga investitsiyalar kiritish xajmi 8,2 milliard dollarni tashkil etdt, bu esa 2008 yilga nisbatan 24,8 fiozga ko'p demakdir. Jalb etilgan xorijiy investitsiyalar xajmi 68 foizga o'sdi, eng muximi, ularni asosiy qismi to'g'ridan to'g'ri kiritilgan xorijiy investitsiyalar bo'lib, ularning xajmi 1,8 barobar oshdi»⁷.

Xozirgi kunda respublikamiz tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar xissasiga tugri kelmokda va ularning eksport xajmidagi ulushi utgan yili 60 foizni tashkil etdi.

Xalqaro moliya institutlari bilan xamkorligimiz faol rivojlanmoqda. Investitsiya va sarmoyalar xaqida gap borganda, bir muxim masalaga aloxida to'xtalib o'tish zarur. Bugun joylarda iqtisodiyotni yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jixozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruktsiya qilish xorijiy sarmoyalarni jalb qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish soxasi va kasanachilikni rivojlantirish nechog'liq katta, xal qiluvchi axamiyatga ega ekanini kimgadir isbot qilib berishga xojat yo'q. Bu avvalambor, axolii bandligi, uning ish xaqi va daromadini oshirish, bu oxir-

⁷ «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda Uzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 2010 yil 30 yanvar.

oqibatda respublikamiz xududlari, shaxar va tumanlarimizdagi eng muxim ijtimoiy muamolari yechish demakdir.⁸

Bu esa o'z navbatida xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsion muxit barpo etish shartlarining ayrimlarini o'z ichiga oladi. Xorijiy investitsiyalar iqtisodiy jarayonlar xisoblanib, jaxon bozori bilan o'zaro yaqin va to'liq bog'liqlikda buladi. Shu nuqtai-nazardan u ko'pgina iqtisodiy jarayonlarni o'zida qamrab oladi. Xorijiy investitsiyalar bozor munosabatlariga o'tayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muxim yunalish sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etishni o'z ichiga olgan investitsiya faoliyatining jadallashuvi bugungi kunda o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun ayni muddao. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy isloxlarga bog'liq.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarishda zamonaviy raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boriladi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining ochilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarining xal bo'lishiga olib keladi.

Jaxon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muxitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muxit ko'p jixatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishining xususiyatlari bilan baxolanadi.

Investitsiya loyixalarini mazmuni va o'zbekiston sharoitida ularni amalga oshirish xususiyatlari. O'zbekiston milliy iqtisodiyotining rivojlanishida iqtisodiy tarmoqlarning kengayishi, mulkchilik shakllarining ortishi va qo'shma korxonalarning salmog'ini o'sib borishiga katta investitsiyalar jalb qilinmoqda.

⁸ Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy isloxlarni chukurlashtirining eng muxim ustuvor yunalishlariga bagishlangan Vazirlar Maxkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // Xalk suzi, 2008 yil 9 fevral, 2bet.

Yonilg'i-energetika majmuasi, mashinasozlik, metallurgiya, kimyo majmuasi, yengil sanoat, sanoatning oziq-ovqat va qayta ishlash tarmoqlariga safarbar etilgan yirik miqyosdagi investitsiyalar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishni barpo qilish va yangi maxsulotlar turlarini o'zlashtirish bilan bog'liq bo'ladi. Keyingi yillarda transport majmuasiga, kommunikatsiyalarga, ijtimoiy soxaga, shu jumladan ta'lim soxasiga investitsiyalar tobora ko'payib bormoqda. Bunday tuzilmaviy o'zgartirishlar jaxon xo'jaligiga kirib borish, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

«Investitsiya dasturi va texnik modernizatsiyalash bo'yicha tarmoq dasturlari doirasida 2009 yil mobaynida 690 ta investitsiya loyixasi amalga oshirildi. Ularning 303 tasi muvaffaqiyatli yakunlandi.

Respublikamizda jami 22 ta yirik ishlab chiqarish ob'ekti, jumladan, neft-gaz, kimyo, metallurgiya sanoatida 8 ta, mashinasozlik sanoatida 9 ta va qurilish indkstriyasida 5 ta ob'ekt foydalanishga topshirildi».⁹

Iqtisodiyotni texnik-iqtisodiy modernizatsiyalash, sanoatning ustuvor tarmoqlarini yanada rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish, tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko'paytirish va yangiliklarni yaratish xisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi.

Xozirgi davrda "investitsiyalar" tushunchasi, aksariyat xollarda keng ma'noda ishlatilmoqda. Iqtisodiy fanlarning turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, soxalar xususiyatlari, safarbar etilish ob'ektlari, xarakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab "investitsiyalar" tushunchasi o'ziga xos ma'noda ishlatiladi. Moliyaviy nuqtai nazardan ularning mazmuni va mohiyatini aniq belgilash muxim vazifa xisoblanadi. Faqat kapitalni yo'qotish riski mavjud bo'lgan pul shaklidagi investitsiyalar yangi aktivlarni vujudga keltiradi. Investitsiyalarning mulkiy shaklidagi moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularga bo'lgan xuquqlarni iqtisodiy va boshqa faoliyatlarga jalb etish esa, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish

⁹ «Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident Islom Karimovning 2009 yilning asosiy yakunlari va 2010 yilda Uzbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muxim ustuvor yo'nalishlariga ba'ishlangan Vazirlar Maxkamasining majlisidagi ma'ruzasi.// Xalq so'zi. 2010 yil 30 yanvar.

soxalarida, investitsiyalar evaziga barpo etilgan aktivlarni ishlatishdan dalolat beradi. Moliya nazariyasiga ko'ra, investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida, moxiyatan xozirgi xarajatlarni bildiradi. Investitsiyalar noaniqlik extimoli bo'lgan va kelgusida kutilayotgan qiymatga kapitalning aniq bugungi qiymatini almashtirishdan iboratdir. Buning dalili sifatida investatsiyalarning safarbar etilishida ularning ongli ravishda aniq va noaniq bo'lgan risklar bilan bog'lanishini keltirish mumkin. "Investitsiyalar" atamasi lotin tilidagi "invest" so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'yish", "mablag'ni safarbar etish" ma'nosini bildiradi. Ko'pgina xollarda "investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat ob'ektlarini kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar xamda ularga doir xuquqlar tarzida ta'riflanadi. "CHet el investitsiyalari" tushunchasiga ta'rif berishda xam xuddi shu ma'no nazarda tutiladi, lekin bu o'rinda ularning qonuniy xuquqliligi va maqsadiga ko'proq urg'u beriladi. O'zbekiston Respublikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunida ¹⁰ O'zbekiston Respublikasi xududida chet ellik investorlar tomonidan qonun xujjatlariga zid bo'lmagan tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlari ob'ektlariga aksariyat foyda (daromad) olish maqsadlarida kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar xamda ularga doir xuquqlarning jami turlari, shu jumladan, intellektual mulkka bo'lgan xuquqlar, shuningdek chet el investitsiyalaridan olinadigan xar qanday daromad chet el investitsiyalari sanaladi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, investitsiyalarning xarakatidan kelib chiqib zamon va makonining almashtirilishi va o'z iqtisodiyotga kirib borishi namoyon bo'ladi. Investitsiyalarning turli shakllarda o'zga iqtisodiyotlarga kirib borishi yangidan investitsiya faoliyatini yo'lga qo'yishda, ularning turi va shakllaridan qat'iy nazar, yangitdan safarbar etilishini va bog'lanishini bildiradi.

Investitsiyalar faqat ishlab chiqarishni ko'paytirish, qoplash, kengaytirish, yangilash va texnika bilan qayta qurollantirishga yoki asosiy kapitalga yo'naltiriladi degan firklarni bildirmoqda. CHindan xam, xarakatlar yo'nalishlari nuqtai nazardan almashtirish, kengaytirish, qurollantirish, fondlar tarkibini yangilash va boshqalarni

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi karori bilan 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan va 1998 yil 20 maydan amalga kiritilgan.

ko'rish mumkin. SHu ma'noda, bu fikrning tasdig'iga dalil sifatida investitsiyalarning sof va eskirishni qoplash investitsiyalariga tasniflanishi, ularning jamlanib yalpi investitsiyalarni xosil qilishini keltirish mumkin.

Respublikamizning bir guruh iqtisodchi-olimlari tomonidan "investitsiya"ga berilgan ta'riflari o'zgacha ma'noda bo'lib, ularning fikricha, "investitsiya" deganda daromad olish maqsadida yuridik va jismoniy shaxslarning barcha turdagi mulkiy, moliyaviy intellektual boyliklarni iqtisodiyotni turli tarmoqlariga uzoq muddatlarga yo'naltirish va shu bilan ishlab chiqarishni kengaytirish xamda axoli talablarini qondirish tushuniladi» deb ta'riflashgan.¹¹

Investitsiya tushunchasiga berilgan ushbu ta'riflarni taxlil qilar ekanmiz, bu ta'rif xozirgi iqtisodiyotning jadal rivojlanishi davrida bir oz eskirganini sezamiz. Bizningcha, investitsiyalar nafaqat uzoq muddatli qo'yilmalar tariqasida, shuningdek, qisqa va o'rta muddatli quyilmalar ko'rinishiga xam egadir.

N.X. Xaydarov - «investitsiya — bu mulk shaklidan qat'iy nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat yuritayogan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarni qonun doirasida bo'lgan xar qanday tadbirkorlik ob'ektiga sarflashidir» deb ta'riflaydi. Bizning nazarimizda, investitsiyalarga berilgan bu ta'rif boshqa mavjud ta'riflarga nisbatan olganda xozirgi davr iqtisodiyotidan kelib chiqib yaratilgan deb xisoblash mumkin. Lekin mazkur ta'rifni xam to'ldirish kerak.

Professor D. G'ozibekovning fikricha - "investitsiyalar aniq va noaniq, lekin extimoli bor risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning xozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratilgan".

Ma'lumki, mamlakatda axolining tobora o'sib borayotgan xayotiy extiyojlarini qondirish, ishlab chiqarishning uzluksizligini talab etadi. Ishlab chiqarishning doiraviy aylanishini ta'minlash investitsiya xolatidan kelib chiqadi.

¹¹Н. Каримов "Иностраннме инвестиции в экономику Республики Узбекистан и их финансовое обеспечение" автореферат диссертации на соискание усхеной степени кандидата экономисхеских наук. Т.; 1998, 6 б.

Investitsiyalar uchun zaruriy moliyaviy manbalarni topish iqtisodiy o'sish shartiga aylangan. Bu esa birinchi nabvatda iste'mol va jamg'arma nisbatiga bog'liq. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishda, o'z modelini amalga oshirayotgan O'zbekiston investitsiyalarni moliyalashtirishning samarali usullari, mexanizmlari va vositalarini izlashda davom etmoqda. Iqtisodiyotning barcha mulkchilik sektorlari doirasida investitsiya faoliyatining kuchayishi investitsiya loyixalarini baxolash va tanlovni o'tkazishni takomillashtirish, investitsiyalash uchun zarur bo'lgan ishonchli moliyaviy manbalarni izlab topish bilan bog'liq bir qator muammolarni xal qilish zaruriyatini ko'ndalang qilib qo'yadi. Mamlakat investitsiya faoliyatida ayniqsa xorijiy investitsiya ishtiroki kuchayishi bilan bu masalalar ahamiyati oshib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov bevosita xorijiy investitsiyalar to'g'risida fikr bildirib: "Bir oddiy xaqiqatni yaxshi tushunib olish kerakki, O'zbekistonga kiritilayotgan investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan-to'g'ri kelayotgan sarmoyalar oqimi xar bir kishi, umuman jamiyat xayoti uchun suv va xavodek zarur" deb baxolagan. Investitsiya faoliyatida burilishlar, ta'kidlangan vazifalarni yechish investitsiyalashning davlat mexanizmini erkinlashtirib borish va bozor mexanizmlari qo'llaniladigan soxalarni kengaytirish, investitsiyalashni o'z jamg'armalari xisobidan ta'minlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish, loyixaviy, korporativ moliyalashtirish, lizing va boshqa shularga o'xshash yangi usullardan foydalanish soxalarini kengaytirishni talab qiladi.

Bozor iqtisodiyoti investitsiyalarning ustivor yo'nalishlarini aniq belgilashni, investitsion loyixalarni moliyalashtirishdagi xavf-xatar va risklarni to'g'ri baxolashni, ilmiy asoslangan investitsiya qarorlarini qabul qilishni, ishlab chiqarish samaradorligini o'stirish, tashqi va ichki bozorlardagi talablarga javob beradigan raqobatbardosh tovarlarni ko'paytirish va yangilarini yaratish xisobiga amalga oshirilishiga javob beradigan investitsion

loyixalarni tuzish va moliyalashtirishda risklarni baxolash va ularni kamaytirish yo'llarini izlashni, ilmiy asoslashni taqozo etadi.

Umuman, bugungi kunda investitsiya loyixalari to'g'risida ko'plab gapirilmoqda. Investitsiya loyixasi tushunchasining tobora keng ko'llanilishi, avvalom bor, ushbu yangi atamaning itisodiy mohiyatini anglab olish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Loyixalarda muayyan moliyaviy resurslarni band etishni nazarda tutadigan investitsion loyixalarini amalga oshirishning uslubiy masalalarini xal etish birinchi navbatda «loyixa», xususan «investitsion loyixa» tushunchalarini yaqqol tasavvur etishni talab qiladi. Kontseptual nuqtai nazaridan «loyixa» tushunchasi boshqalardan farq qiladigan va aniq maqsadga erishishga yo'naltirilgan xar qanday faoliyatlar majmuini bildiradi. Ular rejalashtiriladi, ularni moliyalashtirish nazarda tutiladi, ular taqqoslanishi mumkin. Loyixa kelajakka qaratilganligi sababli oldindan aytib bo'lmaydigan noma'lumliklar bilan bog'liq bo'ladi. Loyixa iqtisodiy va moliyaviy boylik xamda ijtimoiy ma'noga ega bo'lishi munosabati bilan, zamon va makondagi birlik tarzida qaralishini talab etadi.

Loyixa, birinchidan, maqsadli yo'naltirilgan faoliyat, ikkinchidan, bu faoliyat vaqt birligi va resurslar bilan deyarli cheklangan, uchinchidan esa, undan keladigan naf qilingan xarajatlardan doimo ortiq bo'ladi. Chunki, kelajakdagi daromadlar bugungi pul qiymatlari bilan o'lchangan bo'lib, zamonaviy xarajat oqimlaridan yuqori bo'lishi nazarda tutiladi.

Investitsion loyixa tushunchasi uning yo'naltirilgan maqsadini amalga oshirish uchun texnologik jarayonlarni, texnik va tashkiliy xujjatlashtirish jarayonini, ob'ektlarni barpo etish va ishga tushirish jarayonini, moddiy, moliyaviy, mexnat resurslarining xarakatini, shuningdek tegishli boshqaruv qarorlarini va tadbirlarni o'zida mujassamlashtiruvchi tizim sifatida qaralishi mumkin.

Investitsion loyixa turli investitsiya faoliyatlarini rejalashtirish, taxlil etish, baxolash va ulardan foydalanish uslubini ko'llashga imkon beradi. Rejalashtirish, xujjatlashtirish, taxlil va baxolash uslubiyoti esa investitsiya imkoniyatlarini taqqoslashga imkon beradi. Investitsiya loyixasi o'zining sifat - tavsiflariga ega. Ulardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- o'zining maxsus maqsadlariga egaligi;
- maxsus faoliyat uchun boy bo'lmagan resurslarni taqsimlashni talab etishi;
- xozirgi xarajatlar evaziga daromadlarning kelajakda kutilishi;
- pirovard natijada investitsiyalarni yaratishning nazarda tutilishi;
- o'zining yagonaligi, noyobligi tufayli muayyan miqdordagi resurslarni talab qilishi;

- chet ellik agentlarning, investorlar mablag'larining, kreditlarining jalb etilishi;
- xarajatlarni oqilona ishlatishini talab etishi;
- aniq va noaniq risklar bilan to'qnashishi farqlanib turadi.

Yuqorida ko'rsatib o'gilgan va boshqa tavsiflardan kelib chiqqan xolda investitsiya loyixasiga muayyan ishlab chiqarish quvvatlariga kelajakda aloxida turdagi samaralar keltirishi zarur bo'lgan, aniq belgilangan tadbirlar yo'li bilan resurslarni investitsiyalash bo'yicha takliflar to'plami tarzida ta'rif berish mumkin.

Investitsiya loyixasi o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar majmuidan iborat bo'lib, cheklangan davr davomida, belgilangan byudjet xisobidan, ko'yilgan vazifalarni xal qilishga qaratilgan aniq maqsadni nazarda tutadi. Ya'ni, investitsiya loyixalari boshqa tadbirlardan quyidagilar bilan ajralib turadi:

- maqsadi, unga erishish ichki kuchi va uni belgilangan vaqt mobaynida amalga oshirish imkoniyatlari bilan;

- belgilangan davr mobaynida loyixaning noyobligi va tanxoligi darajasi xamda belgilangan vaqtning o'zining cheklanganligi bilan;

- xayotiy tsiklga egaligi bilan.

Barcha investitsiya loyixalari bir qator umumiy belgilarga ega. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- maqsadga erishishga yo'naltirilganligi;
- o'zaro bog'liq xarakatlarni muvofiqlashgan xolda bajarilishi;
- vaqt birligida cheklangan davomiyligi;
- takrorlanmasligi va noyobligi.

Loyixa uch tomonlama cheklanishga ega. U berilgan vaqt oraligida maksimal samaradorlik bilan tavsiflanadi. SHu davrda loyixa uchun ajratilgan mablag'lar

xajmining aniqligi bilan ajralib turadi. Loyixa oldiga qo'yilgan texnik vazifalarni amalga oshirilishi bilan tavsiflanadi.

To'liq shakllangan, yakuniga yetgan investitsion loyixani tuzish va amalga oshirish umumiy xolda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- Investitsiya g'oyasini shakllantirish;
- Investitsion imkoniyatlarni tadqiq etish;
- Investitsiya loyixasini texnik-iqtisodiy asoslash;
- SHartnoma xujjatlarini tayyorlash;
- Loyixa (ishchi) xujjatlarini tayyorlash;
- qurilish-montaj ishlari;
- Ob'ektni ishga tushirish va investitsiya loyixasi (iqtisodiy ko'rsatkichlar)

monitoringini olib borish.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar va nazariyalar asosida xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsion loyixa o'z maqsadi, yo'nalishi, amal qilish soxasi, muddati va chegarasiga ega bo'lgan aloxida faoliyat turi xisoblanadi. U tashkiliy, xuquqiy, ijtimoiy, ekologik, iqtisodiy jixatdan to'liq va mukammal xisob-kitoblar yordamida asoslangan yuridik xujjat xisoblanadi.

Investitsion loyixaning boshqa xujjat va "loyixa"lardan asosiy farqi shundaki, u xaqiqiy xujjat sifatida qaror topishi uchun uning barcha tomonlari maxsus usullar yordamida keng va aniq xisob-kitoblar bilan baxolanadi. SHuningdek uning amalga oshirilishi muayyan miqdordagi mablag'larni safarbar etishga asoslanadi.

Investitsion loyixa investitsiya g'oyasining shakllanishidan vujudga kelar ekan, uning murakkab jarayonlar asosida yaratilishida turli tadqiqotlar va taxlil etish ishlarini olib boruvchi mutaxassislarning asosiy o'rin egallashlarini aloxida e'tiborga olmoq zarurdir. Investitsiya loyixasining o'ziga xos xususiyati uning amalga oshirilishi moliyalashtirishning turli shakllariga mos tushishi bilan izoxlanadi. Bunda investitsiya loyixasini amalga oshirish uchun turli manbalardan mablag'larni jalb etish mumkinligi uning qulayligini, foydaliligani, samaradorligini va afzalligini oshiradi.

Investitsion loyixani amalga oshirishda uning monitoringini olib borish tizimining amal qilishi loyixaning, nafaqat, iqtisodiy samaradorligini, shuningdek ijtimoiy samaradorligini va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xar qanday investitsion loyixalarni moliyalashtirish jarayonida, birinchidan, moliyalashtirish resurslarini cheklanganligi sharoitida loyixani bajarilishini ta'minlashi lozim, ikkinchidan - pul mablag'lariii strukturali ishlatilishi va soliq imtiyozlaridan foydalanishi evaziga ishlab chiqarish xarajatlari va risklarni kamaytirishga erishish lozim.

Investitsion loyixani moliyalashtirishdan oldin, loyixani ishlab chiqish va uni realizatsiya qilish xarajatlari xajmi aniqlab olinadi. Investitsion loyixani moliyalashtirish rusurslarini yetishmasligi, kamomadi uni yanada chuqur taxlil qilishga, ayrim xarajatlarni o'rganib chiqishga imkoniyat yaratadi.

Moliyalashtirishning lizing usuli - vaqtincha bo'sh turgan yoki jalb etilgan mablag'larni investitsiyaga yo'naltirishga qaratilgan aloxida turdagi tadbirkorlik faoliyatidan iborat bo'lib, bunda moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga binoan bir shaxs shartnomada belgilangan mulkni muayyan sotuvchidan sotib olib, uni xaq evaziga boshqa shaxsga tadbirkorlik maqsadlarida vaqtincha foydalanish uchun berib qo'yish majburiyatini oladi.

Moliyalashtirishning ipoteka usuli - kuchmas mulk (er, imorat, tashkilot va boshqalar) garovi asosida olingan pul mablag'lari va boshqa turdagi moliyalashtirish manbalari.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'z moliyaviy mablag'lari xisobidan moliyalashtirish, bu - foyda, amortizatsiya ajratmalari, favqulotda xolatda ko'rilgan zararlarni qoplash uchun sug'urta tashkilotlari tomonidan berilgan mablag'lar, boshqa asosiy aktivlar (asosiy fondlar, yer uchastkalari va boshqalar) va jalb qilingan mablag'lar, masalan, aktsiya sotishdan kelgan mablag'lar, yuqori tashkilotlar, xolding va aktsiyadorlik kompaniyalari tomonidan qaytarib bermaslik sharti bilan berilgan mablag'lar, xayriya va boshqa shunga o'xshash mablag'larni o'z ichiga oladi.

Byudjet tomonidan moliyalashtirilgan mablag'lar, bu - byudjet tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-kuvvatlash, axolini ijtimoiy axvolini yaxshilashga qaratilgan investitsion loyixalarni moliyalashtirish uchun qaytarib bermaslik yoki imtiyozlar asosida berilgan pul yoki moddiy mablag'lar xisoblanadi.

Chet el investitsiyalari ko'rinishidagi moliyalashtirish manbalari. Xozirgi kunda mamlakatimizda bevosita chet el investitsiyalariga bo'lgan talab yuqoridir. Chunki bevosita chet el investitsiyalarini iqtisodiyotga jalb qilish, ishlab chiqarishni zamonaviy ilg'or uskuna va texnologiya bilan qurollantirish, "nou-xou" va malakali ishchi kuchiga ega bo'lish, ilg'or ish tajribasini o'rganish, yangi ish joylarini tashkil qilish, maxalliy bozorni sifatli maxsulotlar bilan ta'minlash, mamlakat eksport imkoniyatlarini kengaytirish, qadri baland valyutaning mamlakatga kirib kelish oqimini oshirish, milliy iqtisodiyotni jaxon iqtisodiyotiga yaqinlashtirish imkoniyatlarini beradi.

Qarz mablag'lari - bular davlat va tijorat banklari tomonidan qaytarish sharti bilan berilgan kreditlar, chet el investorlari tomonidan qaytarish sharti bilan berilgan qarz mablag'lari (masalan, jaxon banki, YTTB, jaxon fondlari, agentliklari va yirik sug'urta kompaniyalari) ni o'z ichiga oladi.

Markazlashgan davlat investitsiyalari bevosita respublika byudjetidan moliyalashtiriladi va ular mamlakat iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy-ijtimoiy soxalarini rivojlantirishga qaratilgan loyixalarni moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi.

Investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish, uning muxim yo'nalishida qulay shart-sharoitlar yaratalishini taqozo etadi. Avvalambor, ijtimoiy rivojlantirish, yangilik va ixtirolarni tatbiq etish asosida ijtimoiy talablarni qondirishga qaratiladi. Bu borada muvofiqlashtirishni tashkil etish investitsiya faoliyati sharoitlarini aniqlash xamda davlat investitsiyalarini boshqarish bilan birga olib boriladi.

Davlat tomonidan investitsiya faoliyati sharoitlarini muvofiqlashtirish bir qator chora-tadbirlarni qo'llash va xayotga tadbqiq etish negizida amalga oshiriladi. Ularni moliyalashtirish va kreditlash manbalari bo'lib, quyidagilar xisoblanadi:

- respublika byudjetining kapital qo'yilmalar qismidan moliyalashtirish;

- vazirlik tomonidan markazlashtirilgan investitsion fondlar xisobiga;
- ustav fondida xalq xo'jaligini investitsion faoliyatini moliyalashtirish tarkibi kiritilgan boshqa maxsus tarmoqlar va tarmoqlararo fondlar xisobiga;
- uzoq muddatli kreditlar, shu jumladan banklar tomonidan berilgan imtiyozli foiz stavkalar evaziga moliyalashtirish;
- chet el investitsiyalari (to'g'ridan-to'g'ri, portfelli, uzoq muddatli kreditlar) bilan moliyalashtirish.

Investitsion faoliyatni uzoq muddatli qarzlar manbasi bo'lib, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari, davlat tashkilotlarining kreditlari, ipoteka ssudalari, xususiy qarz majburiyatlarining joylashtirilishi, obligatsiyalar emissiyasi va uzoq muddatli qarz majburiyatlari xisoblanadi.

Investitsion faoliyatni uzoq muddatli qarzlar manbasi bo'lib, tijorat banklarining uzoq muddatli kreditlari, davlat tashkilotlarining kreditlari, ipoteka ssudalari, xususiy qarz majburiyatlarining joylashtirilishi, obligatsiyalar emissiyasi va uzoq muddatli qarz majburiyatlari xisoblanadi.

Kredit stavkalarni o'zgarishiga, iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasiga va shunga o'xshash ko'rsatkichlarning o'zgarishlariga investitsion loyixalarga ta'sirini aniqlab olmoq lozim, shundan keyin, moliyalashtirish uchun kredit stavkalarini belgilab olish imkoni paydo bo'ladi. O'zgaruvchan kredit stavkalari asosan qisqa muddatlarda realizatsiya bo'ladigan investitsion loyixalarga qo'llaniladi, qat'iy kredit stavkalari esa, uzoq muddatda realizatsiya qilinadigan investitsion loyixalarga qo'llaniladi.

Yuqorida investitsion loyixalarni moliyalashtirishning jaxon amaliyotida qo'llanilib kelayotgan uslub va usullarini o'rganib chiqqan xolda, shunday xulosaga keldik: investitsion loyixalarni moliyalashtirishni xar bir turining o'ziga yarasha kamchiliklari va yutuqlari mavjud, shuning uchun loyixani xar bir bosqichiga mos keluvchi moliyalashtirish manbalarini tanlash talab etiladi. Investitsion loyixalar asosida Namangan viloyatidaxam juda ko'plab loixalar faoliyat ko'rsatmoqda. Bunga quyidagilarni misol qilish mumkin

1. Namangan shahridagi «Noto'qimachi» OAJ da o'z mablag'i hisobidan 50,0 mln. so'm (loyiha qiymati 50,0 mln. so'm) mablag' sarflanib, noto'qimamato ishlab chiqaradigan dastgohlar ta'mirlandi va ayrimlari yangilandi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi ortdi. Loyiha amalga oshirildi.

2. «Namangan-vino» OAJda o'z mablag'i hisobidan 10,2 mln. so'm mablag' (loyiha qiymati bank krediti hisobiga 100,0 mln.so'm) sarflanib, konyak spirti ishlab chiqarish liniyasi ishga tushirildi. Loyiha amalga oshirildi.

3. «Ibrat» bosmaxonasida o'z mablag'i hisobidan 1,5 mln.so'mlik mablag' (loyiha qiymati 3,5 mln.so'm) sarflanib, kompyuter va lazer printerlari o'rnatildi. Yil yakuni bilan 2,0 mln.so'm mablag' sarflanib, ixtisoslashtirilgan plyonkaga nusxa olish uskunasi sotib olindi va ishga tushirildi. Loyiha amalga oshirildi.

4. «Mo'jiza-N» MCHJ 2008-2009 yillarda 515,0 mln so'm mablag' modernizatsiya ishlariga sarflash belgilangan bo'lib, yil yakuni bilan rekonstruktsiya ishlariga o'z mablag'i hisobidan 250,0 mln so'm sarflandi. Hozirda yangi uskunalar o'rnatish ishlari olib borilmoqda. Loyihaning qolgan 265,0 mln so'mi 2012 yil 1-chorak yakuni bilan to'liq o'zlashtirilishi kuzatilmoqda.

5. «Mex-Mash» MCHJ korxonasida mavjud tayyorlov va payvandlash tsexlarini modernizatsiya qilish hisobiga maktab mehnat darsi xonalari uchun maxsus stollar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu ishlarga jami 265,4 mln so'm korxonaning o'z mablag'idan sarf etildi. Loyiha amalga oshirildi.

6. «Mash-Xim» MCHJ Mahalliyashtirish dasturi imtiyozlaridan yaratilgan 55,0 mln so'm mablag' hisobiga qo'shimcha po'lat erituvchi quyma tsex tashkil etildi. Loyiha amalga oshirildi.

7. «Namangan-yog'» AJda PQ-651-qaroriga hamda hududiy dasturiga asosan xo'jalik sovuni ishlab chiqarish tsexidagi dastgohlarni almashtirish va mukammal ta'mirlash ishlariga 40,0 mln.so'm mablag' yo'naltirish hamda 3-chorak yakuni bilan 2,1 ming tonna xo'jalik sovunini ishlab chiqarish belgilangan bo'lib, hozirda 35,0 mln so'm mablag' o'zlashtirildi hamda 5,0 mln so'm mablag' uskunalarni o'rnatish montaj-demontaj ishlariga yo'naltirildi. Loyiha amalga oshirildi.

8. «Olmos XIM» kichik korxonasida uskunalar o'rnatish ishlari yakunlanib, yangi turdagi alyumin idishlar va kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Loyiha amalga oshirildi.

10. «Istiqlol 2000» MCHJ da tashki fasad va binoning tom qismlari to'la ta'mirlanib, bu ishlarga 42,0 mln so'm mablag' sarf etildi. Hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayoni to'la quvvatda ishlamokda. Loyiha amalga oshirildi.

11. «Namangan Elektrqurilmalari» MCHJ da Texnologiyalarni yangilash, yangi turdagi «Batareka, BTSU, DEU» mahsulotlari ishlab chiqarishga joriy yil yakuni bilan jami 80,0 mln so'm mablag' sarflanishi rejalashtirilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar korxonaning o'z mablag'i hisobidan 70,0 mln so'm mablag' o'zlashtirildi. Loyiha amalga oshirildi.

12. Mingbuloq tumanidagi «Agrofirma» MCHJda non va non mahsulotlari ishlab chiqarish sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida joriy yil yakuni bilan 30,0 mln so'm mablag' qayta jihozlash ishlariga yo'naltirish belgilangan. Hozirgi kunga qadar korxonaning o'z mablag'i hisobidan 12,5 mln so'm mablag' o'zlashtirildi.

13. Kosonsoy tumanidagi «Dasturxon bezagi» kichik korxonasida o'z mablag'i hisobidan 1,0 mln. so'm mablag' (loyiha qiymati 1,5 mln.so'm bank krediti) sarflanib, qolipli non ishlab chiqarish tsexi kengaytirildi. Loyiha amalga oshirildi.

14 «Kosonsoy Al-Aziz» MCHJ korxonasida o'z mablag'lari hisobidan 40,0 mln.so'm sarflanib, dastgohlarning ayrim qismlari yangilandi. SHuningdek, qolgan mablag'ni o'zlashtirish bo'yicha bank xujjatlarini tayyorlab, kredit olish ishlarini amalga oshirilmoqda.

15. «Atlasmen» qo'shma korxonasida yiliga qo'shimcha 15000 dona tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga 15,0 mln so'm o'z mablag'i hisobidan sarf etdi. Loyiha 2009 yilda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda.

16. «Kos-And» shuba korxonasida qadoqlash liniyasi o'rnatildi va bu ishlarga 56,0 mln so'm o'z mablag'idan sarflanib, ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi. Loyiha amalga oshirildi.

17. Norin tumanidagi D.Xolmirzaevning «Olis Koinot» kichik korxonasida o'z mablag'i hisobidan 54,7 mln.so'm (loyiha qiymati 54,7 mln.so'm) mablag' sarflanib, ishlab chiqarish binosida mukammal ta'mirlash hamda tikuvchilik dastgohlari sotib olish va tsexni kengaytirish ishlari amalga oshirildi. Loyiha amalga oshirildi.

18. «Popdon mahsulotlari» hissadorlik jamiyatida bank kredit hisobidan 567,0 mln.so'm mablag' (loyiha qiymati 662,4 mln.so'm) sarflanib, donni qayta ishlash liniyasini modernizatsiya qilish uchun Ukrainaning "Ukrmelmarsh" korxonasi bilan tuzilgan shartnomaga asosan ushbu mablag' konvertatsiya qilish uchun o'tkazildi. SHartnomaga muvofiq dastgohlar olib kelib o'rnatildi va mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi ortdi. Loyiha amalga oshirildi.

18. Uychi tumanidagi «Sin-Nam» qo'shma korxonasida o'z mablag'i hisobidan 200,0 mln.so'm mablag' (yillik reja 338,0 mln.so'm) sarflanib, noto'qimamato ishlab chiqarish to'quv dastgohlari Xitoy Xalq Respublikasidan olib kelib o'rnatilib noto'qimato va vatin mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Buni hisobiga 50 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Loyiha amalga oshirildi.

2.3. Sanoatni rivojlantirishning istiqbollari.

Mustaqillik yillarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda. Dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab - chiqarishni yo'lga qo'yish.(7-8 ilovalar)

2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, Ayniqsa, ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgartirishlar izchil davom ettirilmoqda.

2015 yilda Iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash

- 2015 yilda YIM hajmining o'sish sur'ati 108 foiz;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining 8,3 foiz;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 6 foizga ko'payishi belgilandi.
- iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni 11,7 foizga, shu jumladan, oziq-ovqat mahsulotlarini 11 foiz va nooziq-ovqat tovarlarini 12,1 foizga ko'paytirish, ushbu mahsulotlarni chakana savdo tarmog'i orqali sotishni 14,2 foizga oshirish vazifasini belgilandi.

2015 yilda xizmatlar ko'rsatish hajmini 15,6 foizga oshirish va uning YIMdagi ulushini 54,5 foizga yetkazish nazarda tutilmoqda

Iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirish borasida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishilayapti. Buning isboti sifatida mamlakatimizda YaIM o'tgan yilda 2013 yilga nisbatan 8,1 foizga, sanoat ishlab chiqarishi 8,3 foizga, qishloq xo'jaligi 6,9 foizga, kapital qurilish 10,9 foizga, chakana savdo 14,3 foizga oshganligini ko'rsatish mumkin.

Mamlakatimiz rivojlanishining keyingi yillarida ham hozirgidek yuqori va mutanosib o'sish sur'atlarini saqlab qolish, jadal olib borilayotgan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, diversifikatsiyalash, tarkibiy o'zgartirishlar jarayonlarini yanada rivojlantirish va ularni investitsiyalar bilan ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega.

SHu nuqtai nazardan, 2015 yilning 4 martida Prezidentimiz tomonidan imzolangan "2015–2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar

dasturi to'g'risida"gi Farmoni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim qadam hisoblanadi.

Farmon bilan tasdiqlangan dasturga muvofiq, iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari tarkibiga kiruvchi sanoat korxonalari va kompaniyalarida ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish va takribiy o'zgartirishlarni ta'minlash uchun 2015–2019 yillar davomida jami 876 ta investitsion loyiha amalga oshiriladi. Ushbu loyihalarni moliyalashtirish uchun 41 mlrd. AQSH dollari ekvivalentidagi ichki va tashqi investorlar mablag'lari sarflanadi.

Dasturga kiritilgan jami loyihadan 741 tasi bo'yicha 19876,2 mln. dollarlik investitsiyaning moliyalashtirish manbalari va investorlari aniqlangan. Ushbu toifaga kiruvchi loyihalarning 710 tasi dastur amal qilish vaqtida ishga tushadi.

Dasturga xorijiy investorlar va kreditlarni jalb etish uchun qiymati qariyb 20,2 mlrd. dollarga teng bo'lgan 135 ta investitsion loyiha kiritilgan. Ularning eng katta qismi (88 ta loyiha) sanoat tarmoqlarida yangi qurilish va qolgani modernizatsiya hamda rekonstruktsiya qilish bo'yicha amalga oshiriladi.

Dastur doirasida neft-gaz sanoatida qiymati 7,1 mlrd. dollarga teng 39 ta takror boshlanadigan va ishlanadigan hamda qiymati 11,6 mlrd. dollarga teng xorijiy investorlar va kreditlarni jalb etgan holda amalga oshiriladigan istiqbolli investitsion loyihalar ishga tushiriladi. SHu tariqa "O'zbekenergo" DAKda 33 ta, "O'zkimyosanoat" DAKda 26 ta, "O'zeltexsanoat" AKSHda 39, "O'zbekengilsanoat" DAKda 89 ta, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" mamlakat korxonasida 25 ta, "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" mamlakat korxonasida 17 ta va boshqa kompaniyalarda yangi korxonalar qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash yuzasidan loyihalar amalga oshiriladi. Bunda ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan:

- resurslarni tejaydigan gaz-parga asoslangan ngi elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi quvvatlarni qurish va ishlayotganlarini modernizatsiya qilish;

- neft-gaz va neft-kimyo sanoatida tabiiy gaz va kondensatlarni chuqur qayta ishlash asosida polipropelin, polietilen va boshqa murakkab polimerlar kabi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni yo'lga qo'yish;

- yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'li bilan murakkab ma'danli o'g'itlar, polimerlar, sintetik kauchik, metanol va keng qamrovli maishiy kimyo tovarlari ishlab chiqarishni va eksportini diversifikatsiya qilish;

- yuqori texnologiyaga ega bo'lgan sub'ektlar ngi hamkorlikda import o'rnini bosuvchi qishloq xo'jaligi mashinalari, yuk avtomobillari va ularni butlovchi qismlarni ishlab chiqaruvchi ngi quvvatlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirish;

- mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash negizida jahon va ichki bozorda xaridorgir, raqobatbardosh tayyor va yarimtayyor (polufabrikat), bo'yalgan ip, gazlama, trikotaj, oyoq kiyim va charmgalanteriya mahsulotlari ishlab chiqarish hisobidan tekstil va poyafzal sanoatining tovar tarkibini yaxshilash;

- yuqori texnologiyali elektrotexnika, axborot-kommunikatsion texnologiya uchun asbob-uskunalarini, ekologik toza qurilish materiallarini ishlab chiqarish quvvatlarini o'zlashtirish va jadal rivojlantirish;

- mahalliy xom she va o'zimizning tadqiqotlar hamda yetakchi xalqaro kompaniyalar litsenziyasi va patentlari asosida dori-darmonlar ishlab chiqarishni, farmatsevtika sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishning miqdori va assortimentini tubdan kengaytirish;

- xalqaro bozorda xaridorgir bo'lgan sublimatsiya, vaakumli qadoqlash, chuqur muzlatish va meva-sabzavotlarni zamonaviy qayta ishlash usullarini va boshqa texnologiyalarini keng o'zlashtirish yo'li bilan oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarish potentsialini kengaytirish.

Ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar dasturini bosqichma-bosqich amalga oshirish mamlakatimizda YIM yillik o'sishining

8 foizdan kam bo'lmagan darajasini, sanoat ishlab chiqarish hajmini 1,5 martaga ko'paytirishni hamda uning YIMdagi ulushini 24 foizdan 27 foizgacha o'sishini ta'minlaydi.

Dastur chora-tadbirlarini o'z vaqtida samarali hal etish sanoatning yillik o'sish sur'atini 9 foizdan kam bo'lmagan darajasini ta'minlaydi. Mashinasozlik, neft-gaz, neft-kimyo, kimyo, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining barcha soha mahsulotlaridagi 2014 yildagi ulushini 62 foizdan 2020 yilga borib 67 foizga yetkazish ko'zlangan. SHu tariqa respublikamizda 2020 yilda sanoat mahsulotlarining hajmi 18 trln. so'mni, sanoat eksporti imkoniyatlari 2 mlrd. dollarni tashkil etishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida to'g'ridan - to'g'ri xorijiy investitsiyalarga oid nazariy kontseptsiyalar transmilliy korporatsiyalarning xalqaro investitsiya faoliyati va ularning milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sirini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan o'rinli foydalanish TMKlarning ish yuritishi, strategiyasi va investitsiyalarga oid qarorlar qabul qilish jarayonini o'rganish orqali to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish uchun samarali iqtisodiy siyosat vositalarini qo'llashga imkoniyat yaratadi.

2. Ayrim nazariyalarning qoidalari jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlarga bu boradagi siyosatning samarali vositalarini qo'llash hamda xorijiy investitsiyalar oqimini ko'paytirish maqsadida ishlatilishi mumkin.

3. Tovarning tabiiy hayotiy tsikli nazariyasi asoslari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun mas'ul mamlakat organlari va idoralarini hayotiy tsikllarni keng tovar guruhlar, tarmoqlar va texnologiyalarga nisbatan global darajada qo'llanilishi mumkin. Mazkur nazariya sanoatning yetakchi tarmoqlari (masalan, mashinasozlik, farmatsevtika, yuksak texnologiyaga asoslangan kimyo sanoati, to'qimachilik va yengil sanoati) hamda ilg'or texnologiyalar (masalan, mikroelektronika, yangi materiallar yoki biotexnologiyalar) hayotiy tsiklining bosqichlarini tadqiq etish va monitoringini o'tkazishda jiddiy yordam berishi mumkin.

4. Xalqaro ishlab chiqarishga oid eklektik nazariyasidan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilishda TMKlar hamda milliy iqtisodiyotning qiyosiy ustunliklarini muntazam monitoring qilib borishda foydalanish mumkin.

5. Investitsiyalar iqtisodiyot o'sishining eng muhim manbalaridan biri bo'lsada, yagona emas. Investitsiya siyosatini amalga oshirish, investitsiya strategiyasini tanlashda, ayniqsa, korxonalar va ularga tenglashtirilgan tuzilmalar miqyosida moddiylashtirilgan investitsiyalar – asosiy fondlar va ishlab chiqarish

quvvatlaridan foydalanishni yaxshilash, mehnat mahsuldorligini oshirish hamda turli xil yo'qotish va noishlab chiqarish xarajatlarini bartaraf qilishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni investitsiya strategiyasi erishilgan natijalarni tahlil qilish hamda foydalanilmagan zahiralari va imkoniyatlarni izlab topishga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv natijasida investitsion qarorlar samaradorligining asosiy ko'rsatkichi – xarajatlarning minimal va natijalarning maksimal bo'lishi ta'minlanadi.

6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning qabul qiluvchi mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirini baholashga oid iqtisodiy nazariyadagi mavjud kontsepsiyalarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Ulardan birinchisi asosiy e'tiborni xorijiy investitsiyalar oqimi bilan bog'liq ijobiy natijalarga qaratadi, ikkinchisi xorijiy investorlarning ularni qabul qilayotgan mamlakat iqtisodiyotiga aksariyat hollarda salbiy ta'siriga urg'u beradi. Har ikki kontsepsiya ham haqiqatga yaqin, biroq ularning har ikkisi ham xorijiy investitsiyalar bilan bog'liq jarayonlarning ekstremal natijalarini aks etadi. Binobarin, birinchi nazariy yondashuv ijobiy, ikkinchisi esa nisbatan ancha murakkab va salbiy oqibatni ko'zda tutadi.

7. O'tgan yilda investitsiyalarni jalb etish borasida erishilgan natijalar mamlakatimizdagi investitsiya muhitining yanada yaxshilanganligidan, bu esa, o'z navbatida iqtisodiyotdagi muhim tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish imkoniyatining kengayganligidan darak beradi.

8. Xususiylar tadbirkorlikni va bu sohaga investitsiyalarni jalb etishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan mamlakat siyosatini amalga oshirish institutsiyaviy va huquqiy tizimni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bu tizimning samarali ishlashi uning barcha unsurlari bir-birining vazifasini juda kam takrorlagan holda doimiy ravishda o'zaro aloqada bo'lishini hamda faoliyatlari muvofiqlashtirilishini taqozo etadi. 2000 yilda qabul qilingan "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun kichik biznesni tartibga solishning huquqiy asoslarini rivojlantirish sohasida mamlakat faoliyati takomillashuviga olib keldi. SHu bilan birga, aytish

kerakki, bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida kichik tadbirkorlikni mamlakat tomonidan qo'llab-quvvatlash rag'batlantiradigan, tanlab qo'llaniladigan bozor mexanizmlarida muvozanat buzilishiga olib kelmaydigan bo'lishi kerak.

9. Kichik biznesni rivojlantirish borasida yaratilgan qulay shart-sharoitlar sohaning iqtisodiy rivojlanishdagi, aholini ish bilan bandliligi va daromadlarining o'sishidagi roli yanada kuchayishi hamda YaIM, eksport va tarmoqlar hamda sohalarning ishlab chiqarish ko'rsatkichlaridagi ulushi ortib borishiga xizmat qiladi.

10. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy biznesni moliyaviy qo'llab quvvatlashda xorijiy kredit liniyalari mablag'larini banklar orqali real sektorga jalb qilish hisobiga kichik ishlab chiqarishni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda ular negizida moliyaviy jihatidan baquvvat ko'p tarmoqli yirik ishlab chiqarish korxonalari shakllanishi ko'zda tutiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, farmonlari, qarorlari

1. «Valyutani tartibga solish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni.- Toshkent, Adolat, 1993.
2. «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni. - Xo'jalik va xuquq, № 10, 2000.
3. O'zbekiston Revspublikasi Prezidenti farmoni: Kapital qurilishda iqtisodiy isloxlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida. - O'zbekiston ovozi, № 59, 2003.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni: O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va axamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.- O'zbekiston ovozi. № 55, 2003 yil, yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori: To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni xuquqiy ximoya qilishni kuchaytirishga doir qo'shimcha tadbirlar to'g'risida.-Xalq so'zi, №94, 2003.
6. «CHet el investitsiyalar to'g'risida qonun» 30 aprel 1998 yil.- Soliq to'lovchining jurnali, № 6, 1998.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti asarlari va nutqlari

7. I.A Karimov. «Odamlarning tashvish va orzu intilishlari bilan yashash faoliyatimiz mezoniga aylansin».2002 yilning birinchi yarim yilligida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish yuzasidan ustuvor vazifalar va topshiriqlarning bajarilishi xamda dolzarb muammolarning xal etilishi to'g'risidagi ma'ruza. Xalq so'zi. 2002. 19-son. 2-bet
8. “O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir”. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2011 yil 6 dekabr.
9. Karimov I.A. O'zbekiston isloxlarni chuqurlashtirish yo'lida. Toshkent, O'zbekiston, 1995. 48 b

10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. – Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo’shma majlisidagi ma’ruzasi // Xalq so’zi, 2010 yil 28 yanvar’
11. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O’zbekiston, 1999. 29,b.
12. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O’zbekiston, 2009. – 24 b.
13. Karimov I.A. O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan quramiz. Toshkent, O’zbekiston, 1999.
14. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Mamlakat dasturi to’g’risida. 2010 yil 27 yanvar’
15. Karimov I.A. O’zbekiston – bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. Toshkent, O’zbekiston, 1992 . – 26 b,

Kitoblar va monografiyalar

16. Mamatov B. O’zbekistonda zamonaviy investitsiya bozori. – Xamkor, Biznes, №10, 2002. 123-134 b,
17. Razzoqova M. O’zbekistonda xorijiy investitsiyalar. - Bozor, pul va kredit, № 2, 2001. 68,69 b,
18. SHodmonov SH. Va boshqalar. Investitsiya siyosati.- Ishonch, 17 apel, 2003. 34 b,
19. SHEvchenko S., Karimova Z. Investitsiyalarni jalb etish soxasida xalqaro marketing. - Bozor, pul va kredit, №3, 2001. SHerg’oziev N. Investitsiya va iqtisodiy taraqqiyot. 126 b.
20. O’zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo’lida. (Bekmurodov A.SH., G’afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).
21. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o’zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo’llanma. (Bekmurodov A.SH., Gimranova O.B., SHamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).

22. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida.
Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.SH., Berkinov B.B., Usmonov B.B.,
Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b.
(elektron versiyasi bilan).
23. Bodi, Zvi, Keyn, Aleks, Markus, Alan. Printsipo' investitsiy, 4-e izdanie.: Per.
s angl. "Vil'yams", 2008. — 984 s .
24. Damodaran A. Investitsionnaya otsenka: Instrumento' i metodo' otsenki
lyubo'x aktivov:Per.s angl.- 4-e izd. M.:Al'pina Biznes Buks,2007. -1340 s.
25. Investitsii: ucheb. /A.Yu. Andrianov, SV. Valdaytsev, P.V. Vorob'ev i
dr. -2-e izd, pererab. i dop. M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2008.- 584 s.
26. SHarp U., Aleksander G., Beyli Dj. Investitsii: Per. s angl. - M.
INFRA-M, 2007. -1028 s.
27. Vneshneekonomicheskaya deyatel'nost': Uchebnik. B. M. Smitienko, V. K.
Pospelov.S. V. Karpova i dr.]; pod red. B. M. Smitienko, V. K. Pospelova. - 4-
e izd., pererab. i dop.- M.: «Akademiya», 2007. - 304 s
28. N.N.Rasulov.Stimulirovanie privilecheniya inostranno'x investitsii v
ekonomiku Uzbekistana.-T.: «FAN», 2003.-165 s.
29. Igoshin N.V. Investitsii, organizatsiya, upravlenie, finansirovanie: Uchebnik
3-e izd.-M.: «YuNITI : DANA», 2005.- 448 s

INTERNET RESURSLAR

29. www.mfer.uz – O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar,
investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
30. www.uzinfoinvest.uz - «O'zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.
31. www.gov.uz
32. www.lex.uz
33. www.ziyonet.uz
34. www.ebrd.org
35. www.imf.org
36. www.cer.uz
37. www.review.uz
38. www.uzreport.com

ILOVALAR



INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING ASOSIY OMILLARI:




Value	Change
3,006.62	38.97 ▲
2,649.71	33.35 ▲
807.90	2.93 ▲
10,744.54	96.03 ▲
1,367.40	43.56 ▲
626.4	

UsReport 2002

- ◆ «Ochiq eshiklar» siyosati
- ◆ Qulay investitsiya muhiti
- ◆ Imtiyoz va afzalliklar tizimi

➡ **Mustaqillik yillarida Respublikamizga 27 mlrd. AQSH dollaridan ziyod xorijiy investitsiyalar jalb etilgan.**

1



INVESTITSIYA MUHITIGA IJOBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:

- Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik
- Investorlar huquqlarining kafolatlari
- Xalqaro standartlarga javob beradigan moliya-hisob tizimi
- Ishlab chiqarish uchun zarur infratuzilmalarning mavjudligi
- Xom-ashyo bazasi va undan foydalanish imkoniyatining mavjudligi
- Malakali ish kuchining mavjudligi (institut, kolledj va b.)
- Iste'molchi bozorlarga nisbatan qulay geografik joylashuv va optimal transport koridorlarining mavjudligi
- Investorlarga beriladigan soliq va bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyoz va afzalliklar

2



INVESTITSIYA MUHITIGA SALBIY TA'SIR ETUVCHI OMILLAR:

- Investorlar uchun yaratilgan imtiyoz va afzalliklardan foydalanishdagi to'siqlar
- Soliq, bojxona, bank sohalarida, shuningdek investorlarga er ajratish bilan bog'liq muammo va to'siqlar
- Tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar tomonidan tekshiruvlarning ko'pligi
- Mavjud infratuzilmadan foydalanishdagi muammolar (elektr energiya, gaz, suv, issiqlik manbai, kanalizatsiya va b.)
- Hududdagi ayrim investorlarga yaratilgan sharoitlar va ularga bo'lgan munosabat
- Mahalliy hokimliklar tomonidan u yoki bu masalalarni hal etishga oid qararlarni tezkorlik bilan qabul qilinmasligi, byurokratik to'siqlarning mavjudligi

3



INVESTITSIYANI RAG'BATLANTIRISH VA HIMOYA QILISH QONUNCHILIGI

O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish sohasidagi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

«Xorijiy investitsiyalar to'g'risida» gi Qonun;

«Investitsiya faoliyati to'g'risida» gi Qonun;


«Xorijiy investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to'g'risida» gi Qonun;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan qarorlar shaklida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.

4



HUDUDLARDA FAOLIYAT YURITMAYOTGAN XORIJIY SARMOYALAR ISHTIROKIDAGI KORXONALAR SONI VA ULUSHI



18



Asosiy transport koridorlari



Hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda mavjud muammolar:

investitsiya infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi – banklar, investitsiya fondlari, sug'urta va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ularning ishtirokini samarali yo'lga qo'yish;

tadbirkorlarning biznes-ko'nikmalari, shu jumladan investitsiya loyihalarini bilan ishlash tajribasi va huquqiy bilimlari yetarli darajada emasligi – hududlarda konsalting, marketing va yuridik xizmat ko'rsatuvchi markazlar tashkil etish va faoliyatini takomillashtirish;

investitsiya takliflari va loyiha texnik-iqtisodiy asoslarining belgilangan talablarga javob bermasligi – tashabbuskorlarga investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda tijorat banklari, hududlardagi savdo-sanoat palatasi va boshqa mutasaddi idoralar tomonidan amaliy yordam ko'rsatilishini mahalliy hokimliklar tomonidan muvofiqlashtirish va doimiy nazoratga olish;

25

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar

- **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 11apreldagi PF-3594 sonli farmoniga ko'ra, 2005 yil 1 iyuldan boshlab to'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy sarmoyalarni jalb etadigan korxonalar qo'yidagi soliqlardan ozod etiladi:**
- **asosiy faoliyat bo'yicha daromad (foyda) solig'i;**
- **mulk solig'i;**
- **mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona solig'i;**
- **ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;**
- **yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalari;**
- **Mazkur soliq imtiyozlar to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalar hajmi qo'yidagicha bo'lganda beriladi:**
- **\$300 ming. - \$ 3 mln. - 3 yil muddatga;**
- **\$3 mln. - \$ 10 mln. - 5 yil muddatga;**
- **\$10 mln. ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga**

19